

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

UDK:721.021

Qo'lyozma huquqida

KADIROV JAMSHID XOLMUHAMAD O'G'LI

SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY QISMIDA YANGI
BINOLAR FASADINI ME'MORIY-BADIIY
TASHKILLASHTIRISH VA ESKILARINI TA'MIRLASH
TAMOYILLARINI TADQIQ QILISH

5A340103—"Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini
tiklash" mutaxassisligi

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

_____ Maxmadiyev X.J.

Ilmiy maslahatchi: Arx.fan.dok

_____ O'ralov A.S

Samarqand–2017

Mundarija

Kirish.....	7
I-BOB.Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan an'anaviy va amonaviy binolarning fasadini o'rganish.....	13
1.1.Samarqand shahrining tarixiy qismi haqidagi umumiy ma'lumotlar.....	13
1.2.An'anaviy me'moriy obidalar va ularning fasadlari.....	21
1.3.Zamonaviy qurilgan binolar va ularning fasadlarini o'rganish.....	29
1 bob xulosasi.....	33
II-BOB.Samarqand shahrining tarixiy qismida sobiq ittifoq davrida qurilgan eski binolar fasadlarini tamirlash va qayta qurish tamoyillarini tadqiq qilish.....	35
2.1.Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan sobiq ittifoq davri binolar tipologiyasi.....	35
2.2.Sobiq ittifoq davri binolari fasadlarini tamirlash va qayta qurish talablarini o'rganish.....	38
2.3.Vatanimiz tajribalari hamda horijiy tajribalari.....	42
2 bob xulosasi.....	46
III-BOB. Samarqand shahri tarixiy qismida qurilgan zamonaviy binolar fasadlarini me'moriy-badiiy tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish.....	48
3.1.Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilayotgan zamonaviy jamoat binolar va turarjoylar.....	48
3.2.Qurilayotgan zamonaviy binolar fasadlarini me'moriy-badiiy tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	56
3.3.Samarqand shahrining tarixiy qismida me'moriy muhit qiyofasining shakllanishi yo'llari.....	62
3bob xulosasi.....	71
Umumiy xulosalar.....	73
Adabiyotlar ro'yxati.....	77
Ilovalar.....	80

Kirish

Qishloq va shaharlarimizni obod qilish-bu shunchaki havas yoki ermak emas, balki shu orqali odamlarning turmish sharoitini, eng muhumi, ma'naviy dunyosini o'zgartirish demakdir.

I.Karimov

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi Mamlakatimiz mustaqillikga erishish va istiqlool sharofati bilan eng buyuk imkoniyatlardan biri milliy qadriyatlarimizni tiklash, ajdodlar yaratgan ulkan bebaho madaniy merosni asrab-avaylash bilan birgalikda ularga mos ravishda rivojlantirib borishdek ulkan masuliyat yuklaydi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tamonidan "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhum omillardan biri bo'lib xizmat qiladi" [1] deb takidiagani bejiz emas, chunki moddiy- madaniy merosimiz bizga tariximiz nadarar duyuk ekanligini o'zida nonoyon etib turadi. Bugungi kunda bu borada olib borilayotgan ishlar tug'risida gapiradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 26 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shaharsozlikni yanada takomillashtirish borasidagi vazifalar tug'risida"gi PF-2595-sonli farmoni[2], hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 27 apreldagi "Arxitektura va qurilish soxasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida"gi 165-sonli[3], 2000 yil 14 avgustdagi "Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarning bosh rejalarini ishlab chikish va ularni qurish tartibi tug'risidagi nizomni tasdiklash hakida"gi 320-sonli[4], 2000 yil 23 avgustdagi "Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun raxbarlar va mansabdor shahslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 329-sonli tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish tug'risidagi qarorlari chiqdi[4].

Murakkab tarixiy shaharsozlikning qadr-qimmatlari va saqlanilgan tabiatlarni o'rab olgan muhitlarining yaxshilanishi davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Shaharsozlik an'analari va tabiat muhiti zamonaviy siyosiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida, xuddi milliy boylikning qimmatbaho komponenti kabi yoritilishi lozim. Shaharni tashkil etish va amalga oshirish strategiyasining siyosiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat siyosatining ekologiya va shaharsozlik sohasida saklangan milliy me'moriy madaniyat o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi uchun axolining sog'ligi, siyosiy va ekologik tinchligi ajralmas bir butunlikda turadi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan Samarqand shahridagi me'moriy ansambllar muhitini o'rganish va ularning taraqqiyot yo'llarini tadqiq etishga bizga Respublika prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi "Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, O'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga qaytarish ma'naviyat dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi. Bu milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak"[5], deb aytgan so'zlari tarixiy an'analarni rivojlantirishga muhim bir asos bo'ldi.

Dunyo madaniyati taraqqiyotida munosib o'rin tutib kelayotgan, boqiy va hamisha navqiron Samarqand, ruyi zaminning eng guzal shahri, buyuk allomalar yashab o'tgan, dunyo sivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida ezoz bilan tilga olinishi bejiz emas. U sharq va g'arbni tutashtirgan buyuk shahardir. Samarqand qadimiylilikda Bobil, Rim va boshqa qadimiy shaharlar qatorida turadi, uning yoshi olimlarimiz va dunyo olimlari tomonidan 2750 yoshda ekanligi isbotlandi.

Shu boyisdan bunyodkorlik, memorchilik va shaharsozlikda bobida qadimiy obidalarga mos yangi binolar yaratish va eskilarimi ta'mirlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Samarqand shahrining tarixiy qismida yangi binolar fasadini me'moriy-badiiy tashkillashtirish va eskilarini ta'mirlash tamoyillarini tadqiq qilish borasida me'morchiligimizda an'anaviylik va zamonaviylikni o'zida aks ettirgan binolar fasadlarini ishlab chiqish va qurilganlarini tahlil qilish, hamda eskilarini yangi sobiq ittifoq davrida qurilgan "mahalliy madaniyatni qaloq, chetdan kirib kelgani ilg'or" degan noto'g'i tushuncha paydo bo'lib buning natijasida zamonaviy me'morchiligimiz o'zining teran tomirlaridan ajratib rivojlantirilishi holatlarini kurishimiz mumkin, endilikda bu holatni bartaraf etish uchun bu binolarning fasadlarini milliy me'morchiligimizga mos tarzda uyg'unlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish, va hayotga tadbqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va piridmeti. *Tadqiqot ob'ekti* Samarqand shahri tarixiy qismiga kiruvchi "eski shahar"(temuriylar) hududlarni o'z ichiga oluvchi va tarixan shakillangan hududlarni qamrab olgan bo'lib, eskishahar hududida qurilgan obidalar, jamoat binolar va turarjoylarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot predmeti: Aynan Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan an'anaviy obidalar, hamda zamonaviy qurilayotgan binolarning fasadlarini tahlil qilish bilan birgalikda Sobiq ittifoq davrida qurilga binolar fasadini umumlashtirib an'anaviy me'morchiligimiz tamoyillariga mos tarzda tamirlah asoslarini ishlab chiqish va kelajakda qurilishi rejalashtirilayotgan binolarni qamrab oladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan milliy an'alarimizga asoslangan obidalarimizning fasadlarini o'rganish hamda ularni umumlashtirish va yangi qurilayotgan binolar fasadini tahlil qilish bu soha qulga kiritilgan yutuq va tajribalarni o'rganish, tarixiy qisimda yangi binolar fasadini me'moriy-badiiy shakillantirish va rivojlantirish yo'llarini hamda eskilarini yangi sobiq ittifoq davrida qurilgan binolar fasadini tamirlash uni milliy me'morchiligimizga mos holatda aks ettirish chora tadbirlarini ishlab chiqish va Samarqand shahrining jelajakdagi me'morchilikni,

milliylilikni o'zida mujassamlashtirgan jahon memorchligi talablariga mos keladigan fasadlarning takliflarni berish.

Maskur maqsadga erishish uchun bir qancha **vazifalar** qo'yiladi:

- Samarqand shahrining tarixiy qismi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish;
- Samarqand shahri tarixiy qismida qurilgan an'anaviy binolar fasadini o'rganish va umumlashtirish;
- Mavjut sobiq ittifoq davrida qurilgan binolar fasadini tahlil qilish va tipologiyasini aniqlash;
- Fasadlarni ta'mirlashda vatanimiz va horijiy tajribalarini o'rganish.
- Zamonaviy qurilayotgan binolar va ularning fasadlarini o'rganish;
- Yangi binolar fasadini me'moriy-badiiy tashkillashtirishning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- Samarqand shahrining o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida aks ettirgan binolar fasadini ilmiy asoslash;
- Me'moriy muhit qiyofasini shakillantirish yo'llarini tahlil qilish.

Ilmiy yangiligi Samarqand shahrining tarixiy qismida yangi binolar fasadini me'moriy-badiiy tashkillashtirish, ularni boy tarixiy an'alarimizga munosib bo'lgan hamda o'zida kelajak me'morchiligini aks ettirgan binolar fasadlarini ilmiy asoslab tahlil qilish, bu borada zamonaviy me'morchilikda aynan an'anaviy fasadlarni uyg'o'nlashtirish masalalarini nazariy jihatdan asoslagan holda ularni amaliyot bilan bog'lash, Aynan Samarqand shahri misolida boshqa tarixiy shaharlarimizga ham tadbiq qilish. Tamirlash borasida ham aynan Sobiq ittifoq davrida qurilgan binolar fasadini ta'mirlashda an'anaviylik tamoyillarini ilgari surish, ilmiy asoslangan taklif va loyhalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari Ilmiy tadqiqotimiz asosiy masalalari fasadlarga qaratilgan bo'lib, binolarning fasadlarini tahlil qilish va urganish, an'anaviy va hozirgi zamon binolari fasadlarini taqqoslash, analiz va sentiz qilish, an'anaviy binolarda qullanilgan fasad elementlarini o'rganish, binolarning ulo'g'voligini oshirishda fasadlarning o'rni.

Tadqiqot mavzuvi buyicha adabiyotlar sharxi (tahlili). Samarqand shahri tarixiy qismi hamda an'anaviy va zamonaviy binolari to'g'risida ilmiy ishlar bayon etilgan: Pugachenkova G.A., Rempel L.I. "Vedayushiesya pamyatniki arxitekture", Axmedov M.Q Me'moriymeros, Ahmedov M.Q."O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi", Qodirova T.F. "O'zbekistonning istiqlool yillari me'morchiligi", Bo'latov X. O'rolov A.S. "Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish", "Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash" TAQI vaSamDAQI, O'ralov A.S "Me'moriy shakillarni uyg'unlashtirish va bezash", Zohidov P.Sh. "Me'mor olami", Qodirova T.F. "San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi", Sultonova D.N. O'zbekiston me'morchiligida tasviriy va badiiy vositalarni uyg'unlashtirish kabi ilmiy adabiyotlar, maqolalarda, ilmiy dissertatsiyalarni o'rganish ularni tahlil qilish nazarda tutiladi.

Tadqiqotda qullanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot davomida Samarqand shahri tarixiy qismida qurilgan me'morchilik namunalarini o'rganish ularning fasadlarini tahlil qilish, adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirish, olingan ilmiy natijalarni umumlashtirish, umumiylikdan yakkalika, hamda yakkalikdan umumiylik tamoyiliga asoslangan holda tadqiq qilish.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati Dissertatsiyaning nazariy ahamiyati shundaki, o'rganilayotgan tadqiqot natijalari asosida nazariy jihatdan o'rganilib, bu borada ilmiy izlanishning yutuqlari tahlil qilinib va arxitektura sohasida ilmiy qullanma yok monagirafiya tarzida chop etish, binolar fasadini yaratishda mimalarga etibor berish kerakligini, darsliklar va o'quv qullanmalarni yaratish bo'yicha zarur materiallar tarzida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki yangi, zamonaviy me'morchilikda yuzaga kelgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish hamda mavjut yutuqlarni tahlil qilish, Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilayotgan va qurilgan binolarni, obidalarini o'rganish fasadini tahlil qilish, ularning fasadlarini umumlashtirish,yangi binolar qurilishida qo'llash, Samarqand shahrining yangi rivojlanish kontseptsiyasiga asosan shaharning

kelajakdagi qiyofasini o'zida aks ettirgan, milliy me'morchiligimizga mos binolar fasadini yaratish va takliflar berish.

Ish tuzilmasining tavsifi dissertatsiyaning **I-bob** "Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan an'anaviy va zamonaviy binolarning fasadini o'rganish"ga qaratilgan bo'lib, Samarqand shahrining tarixiy qismi haqidagi umumiy ma'lumotlar, an'anaviy me'moriy obidalar va ularning fasadlari o'rganish hamda zamonaviy qurilgan binolar va ularning fasadlarini tahlil qilinadi va shu ma'lumotlar asosida tegishli xulosalar chiqariladi.

II-bob Samarqand shahrining tarixiy qismida sobiq ittifoq davrida qurilgan eski binolar fasadlarini tamirlash va qayta qurish tamoyillarini tadqiq qilishga qaratilgan bo'lib, unda Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan sobiq ittifoq davri binolar tipologiyasi aniqlash, Sobiq ittifoq davri binolari fasadlarini tamirlash va qayta qurish talablarini o'rganish va milliy me'morchiligimizga mos tarzda uyg'unlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish, ta'mirlashda vatanimiz tajribalari hamda horijiy tajribalarini o'rganish, amaliyotda qullash va ushbu bob buyicha tegishli xulosalar chiqarilgan.

III-bob "Samarqand shahri tarixiy qismida qurilgan zamonaviy binolar fasadlarini me'moriy-badiiy tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish" buyicha ilmiy tadqiqot olib boriladi handa Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilayotgan zamonaviy binolar va turarjoylar tahlil qilindi va qurilayotgan zamonaviy binolar fasadlarini me'moriy-badiiy tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Xulosa qismida dissertatsiyaning yakuniy xulosalari chiqarilgan, olingan ilmiy natijalar bayon etilgan va takliflar berilgan.

I-BOB. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY QISMIDA QURILGAN AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY BINOLARNING FASADINI

O'RGANISH

“Bizning qudratimizga shak keltirgan
bo'lsang, biz qurdirgan imoratlarga boq”

Amir Temur

1.1.Samarqand shahrining tarixiy qismi haqidagi umumiy ma'lumotlar

Samarqand jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo'lib, dunyo madaniyati va fani xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan shahardir. “Samarqandda 290 dan ortiq arxitekturaviy va 2 mingga yaqin arxiologik yodgorliklar mavjud. Tarixchi va adiblar bu shaharni Sharq musulmon dunyosining qimmatli durdonasi, “Sharq Rimi” deb ham ataydilar[6]. Shu sababli Samarqand g'arbda qadimiy Rim, Bobil va boshqa qadimiy shaharlar qatorida turadi, uning yoshi olimlarimiz va dunyo olimlari tomonidan 2750 yoshda ekanligi isbotlandi.

Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so'ng Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini, tiklash va ta'mirlash, ayniqsa, eski shahar hududida qayta qurish va ta'mirlash, bunyodkorlik bo'yicha katta keng kulamli ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqand shahri tarixiy qismi asosan uch qisimdan iborat bo'lib, bu qismlar qadimgi Afrasiyob, eski shahar (temuriylar) davri va yangi shahar(rus) davriga bulingan.

Samarqand shahri o'zining salkam uch ming yillik tarixi davrida shimolda Siyob kanalidan janubda Dargom kanaligacha gox, kengayib, gox, kichrayib abadiy shahar tarzida mavjud bo'lib kelgan[7]. Samarqand shahridagi eng qadimgi qismi Afrosiyob bo'lib u O'rta Osiyoda eng qadimgi qal'a shaharlardan hisolanadi juda ko'p qonli fojialarni boshidan utkazgan. Samarqand millodan avvalgi IVasrdan mil. VI asrgacha Sug'd davlatining poytaxti bo'lgan.

Afrosiyobdagi eng quyi madaniy qatlamlarni o'rganish jarayonida yer sathidan 10—15 metir chuqurlikda mil. av. IX-VII asr o'rtalariga oid ashyolar topildi. Bular qo'lda yasab rangli naqsh berilgan sopol idishlarning parchalari va shuningdek, guvaladan tiklangan 7 metr qalinlikdagi mudofaa devori qoldiklaridir. Afrosiyobning 19 gektarlik ark qismi devor bilan butunlay o'rab olingan. Afrosiyobning boshqa joylari ham tekshirib ko'rilganda quyi qatlamlaridan shunga o'xshash va mil. av. IX-VIII asrlarga oid ashyolar topildi. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashagan.

“Samarqand (Afrosiyob) hududi 218ga yirni tashkil etib halqali mudofa devoriga ega bo'lgan. Hozirgi Hazrati Xizir masjidi o'rnida to'g'on joylashgani aniqlangan. Unga Darg'om kanalidan suv keltirilib, damba yaqinidagi osma suvo'tkazgich (akveduk) orqali suv shaharning uch kanaliga tarqalgan. Shahar ko'chalari tog' toshi bilan ishlangan bo'lib, shahar o'z vodaprovat sistemasiga ega bo'lgan”[8].

XIII asr boshlarida O'rta Osiyoning tinch hayotiga Chingizxon boshliq mo'g'ul bosqinchilari tajovuz solishi, buning natijasida ko'plab shaharlarni, san'at, arxitektura yodgorliklari, moddiy va madaniy boyliklarning vayron etilishiga olib keldi, bu holat Afrosiyobni ham chetlab utmadi, ma'lum vaqtgacha bu yirda hayot tuxtaydi. Necha asrlab suv berib turgan suv quvurlari vayron etiladi, gullab-yashnab turgan bog'lar kul tepalarga aylantirildi. Biroq shahar butkul yo'q bo'lmadi. Endilikda shahar Afrosiyobdan janubroqqa kuchadi, buning sababi XIV-XV asrlarga kelib endilikda shahar buyuk sarkarda Amir Temurning Samarqand shahrini o'z saltanatining markaziga aylantirishga qaror qilgan davrlarga to'g'ri keldi.

Amir Temur bu joyda o'z arkini bunyod ettiradi va butun hayoti davomida Samarqandni dunyoning eng guzal va betakror shahriga aylantirishga harakat qildi. Amir Temurning ushbu qurilish hamda qayta ta'mirlash ishlariga shaxsan o'zi rahbarlik, tashabbuskorlik, qolaversa homiylik qilgani, to'g'risida uning mashhur “Tuzukoti Temuriy” asaridan bilib olish mumkin. Masalan asarda

qo'yidagilarni o'qiymiz: "Xarob bo'lgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa (davlat yerlarini boshqaruvchi mahkama) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsayu obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsun.

Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar solsinlar, yo'l ustida, har bir manzilgohga rabotlar qursinlar"[9].

Biroq bu davirda qurilgan binolarning kupchiligi bizning davrimizgacha yitib kelmagan. Bugungi kungacha yitib kelganlari Shohi Zinda tarixiy yodgorligi ichidagi qator maqbaralar, Ruhobod (Shayh Burhoniddin maqbarasi), Guri Amir ansambilining asosiy qismi, Temurning Jomiy masjiti va undan so'ng Mirzo Ulug'bek tomonidan ham bir qator bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi. hususan Registon maydonida madrasa, honaqoh, Kavonsaroy, abservatoriya va Shohi Zinda tarixiy yodgorligiga kirish peshtoqini bunyod ettiradi. Temuriylar davri O'rta Osiyo me'morchiligining eng yuqori chuqqisi, oltin davri hisoblanadi. Bu davirda bunyod etilgan me'moriy obidalar, saroylar o'zining mahobatlilik, maftunkorligi kurkamligi bilan ajralib turadi. Amir Temur davrida uning saroyida bo'lgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z bitiklarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: "Temur bu shaharning gullab-yashnashini xohlardi, u qaysi yurtni egallamasin, u yerdan odamlarni bu yerga yashashi uchun olib keldi, ayniqsa turli yo'nalishlardagi ustalarni yig'ishga harakat qilardi"[10]. Bundan kurinib turibdiki Amir Temur Samarqandni obod qilish uchun keng kulamli ishlarni amalga oshirgan.

Buyuk shoir va davlat arbobi Zahridin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur... Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imorati va bog'oti Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq, Kuksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oily imorattur. Yana Ohanin darvozasig'a yovuq qal'aning ichida bir masjid jum'a solibtur, sangin askar Hindistondin eltgan sangtaroshlar

anda ish qilibturlar. Temurbekning nabirasi, Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning toshqo'rg'onida – Chaqarda bir qo'rg'on solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandta podshohliq qilibtur, alarning qabri ul madrasadadur. Ulug'bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqhdur. ...Yana bir oily imorati pushtayi Ko'hak dononasida rasaddurkim, zij bitmakning olotidur. Uch oshyonliqdur. Ulug'bek mirzo bu rasad birla... "Ziji Ko'rag'oni"ni bitibturkim, olamda bu zij musta'maldur"[11] deb o'z asarida qimmatli ma'lumotlarni bayon etadi. Ulug'bek zamonida Samarqand O'rta Osiyoning bilim o'chog'iga aylandi. O'sha davrlarda bu yerga dunyoning eng taniqli matematiklari, astronomlari, tarixchi olimlari yig'ilishgan. Ulug'bek zamonasida tanlab jalb qilingan olimu-fuzalolar, uning observatoriyasida xizmat qilgan, olimlar fanning ajoyib siru-asrorlaridan voqif bo'ldilar.

Samarqand jahondagi shaharlar ichida o'zining qariyb 3000 yillik tarixiy rivojlanishi bilan yuksak ahamiyatga ega. Muxtaram birinchi prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlanganlaridek -"Samarqand utmishi sharaflı, buguni saodatli, kelajagi abadiy shahardir". Qadim zamonlardan turli davr taqozosi bilan uning xududi gox kengayib, goxida kichrayib rivojlangan. Uning eng qadimiy qismi Afrosiyob ekanligi ma'lum. Shaharni 712 yilda arab qushinlari istilo qiladi, XI - asrda Samarqand qoraxoniylar davlatining poytaxtiga aylanadi.

1220 yilda Chingizxon qushini tomonidan Afrosiyob butkul vayronaga aylantirilgandan so'ng, uning aholisi shaharni tark etib, rabodga ko'chib chikishga majbur bo'ladi va shahar rabodda rivojlanadi.

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand ulkan imperiyaning poytaxtiga aylanadi. Amir Temur egallagan davlatlardan hunarmandlar, ustalar va me'morlarni Samarqandga yig'ib, bu erda ulkan qurilishlarni amalga oshiradi. Natijada qisqa vaqt ichida Samarqand shahrida ko'plab ma'muriy, maishiy, savdo va diniy bino va inshootlar, ulardan tashkil topgan me'moriy majmualar va savdo ko'chalari shakllanadi.

Shaharning Tepaqurgon qismida ma'muriy va xizmat kursatish binolari

majmuasi shakllanadi. Atrofi mustahkam devor bilan o'ralgan Samarqand arki tashkil etilgan. Amir Temur nafaqat bino va inshootlarni yakka tarzda qurishni balki ulardan majmualar tashkil etishni buyuradi. Natijada shaharda Shohi - Zinda, Bibi-Xonim, Guri Amir kabi me'moriy majmualar shakllanadi. Ular o'zaro keng va ravon kuchalar bilan bog'lanadi. Amir Temur vafotidan keyin uning bunyodkorlik ishlarini nabirasi Mirzo Ulug'bek davom ettirib, Registon maydonida Madrasa va uning rufasida "qush" tarzda xonako qurdiradi. Mirzo Bobur o'z asarida bu xonaqoxning katta gumbazga ega ekanligini yozadi. M. E. Masson xonaqo gumbazining kattaligi uning buzilishiga olib kelganligini ta'kidlaydi. XVII asrda ashtarxoniylar hukmronligi davrida Samarqandda qurilish ishlari avj oladi va temuriylar davridagi qurilishlarga mos yangi binolar qad kutaradi.

Sarkarda Baxodir Yalangtush Qobul va Mashxadni ishg'ol etib, kup boyliklarni tuplaydi. Shu mablaglar hisobiga Registon maydonida Sherdor va Tillokori madrasalarini qurdiradi. Sherdor madrasasining qurilishi tugatilgandan 10 yildan so'ng Baxodir Yalangtush Tillokori madrasasining qurilishini boshlaydi. Bu 1646-1647 yillarga tug'ri keladi. Shundan so'ng Registon "maydon" turidagi me'moriy ansambl shakliga keladi.

1868 yilda Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng uning eski shahar qismi qarovsiz holga kelib qoladi. Kuplab me'moriy obidalar xarobaga aylanib, ba'zilar kamokxona, omborxona va boshka texnik xamda xarbiy extiyojlarga ishlatiladi. Samarkand arki buzilib, bu erdan radial xalkali planirovkaga ega bo'lgan yevropa tipidagi "yangi shahar"ning qurilishi boshlanadi. Eski va yangi shaxarni ajratib turuvchi yashil xiyobon – bulvar tashkil etiladi.

M.Ahmedov "Me'moriy meros" kitobida Samarqand haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon qiladi: Samarqand 1868 yil 2- may kuni Chor Rossiyasi qushinlari tomonidan bosib olinadi. General-gubernator Kaufman, harbiy rassom V.V Vereshagin kundaliklari va boshda manbalarda yozilishicha, rus harbiylari Samarqandga kirib kelgach, Amir Temurning sobiq arkiga

joylashishadi. Arkning uzunligi 3 vyorst (chaqirim), maydoni esa 40000 sajen (dulol) yoki 100 tanob, taxminan 20 gektar (o'rta asrlarda 1 tanob 900 m , XIX asrda 1600 m²) dan iborat bo'lgan. Rus qushinlari va ma'murlarini joylashtirish uchun arkdagi barcha mavjud imoratlardan foydalanishgan. Soxibqironning Kuk saroyi, keyingi yillarda beklik idorasi sifatida ishlatilib kelinayotgan imoratga xarbiy kasalxona-lazaretni, masjidga boshlid devonxonasi va qarorgoxini, Ali madrasasiga qamoqxonani joylashtirishadi. Keyinchalik rus harbiylari o'rta asrlardagi ark imoratlarini bo'zib, uning o'rniga o'z qurg'onlarini quradilar. Mana shu rus xarbiy qurgoniga qaratib Evropa shahrsozligiga xos bo'lgan, dastlab Marselda, so'ng Sank-Peterburg va Vashington shaharlarining planirovkasida qo'llanilgan uch nurli kompozitsiya asosida, eski shaharga teskari qidlib, rossiyaliklar yashashiga muljallangan yangi shaharni bunyod etishadi.

Ruslar davrida tuzilgan Samarqandning birinchi bosh plani Turkiston general-gubernatori Kaufman tomonidan 1870 yilda tasdiqlangan edi. Uni usha paytlarda Zargaron kuchasi va ruslar istehkomining atrofini tekislash bilan shug'ullangan polkovnik L.Serov tuzgan edi. 1872 yilda topograf I.G.Sexanovich shahar hududining toponusxasini tuzib, kuchalarning joylashuv rejalarini tortib chikdi. 1875 yilning 1-yanvariga qadar kichik topograf, podporuchik I.K .Petrov tomonidan harbiy inshootlar tushirilgan Samarqand harbiy qurg'oni va yangi shaharning bosh plani tuzilib, taqdim etildi. Mana shu loyihaga kura harbiylar kal'asi 31,2 ga, yangi shahar esa 121 ga yerni egallagan. 1883 yilda Amir Temur arki hududidagi Kutbi Chahordaxum nomi bilan ma'lum bo'lgan Shayx Nuriddin Basir maqbarasi harbiylar tomonidan portlatib yuborildi. 1888 yilda Samarqandga Kaspiyorti temir yuliningkirib kelishi munosabati bilan kurilishlar rivojlanib, jadallashib ketdi.

Samarqand shahrining rus harbiylari tomonidan bu xilda qurilishi katta strategik ahamiyatga ega edi. Ruslar o'zlari uchun qurgan yangi shahar shimol tomondan jarliklar bilan, janubdan esa Abramov bunyod etgan bulvar bilan chegaralangan edi. Uning sharqida sobix Amir Temur arki urnida, uning

mudofaa devorlari ichida yangi harbsy qal'a shakllandi. Mana shu harbiy qal'adan - markazda Toshkent (hozirgi Amir Temur) nomli, uning shimolrog'ida Kattaqurgon (hozirgi Mirzo Ulugbek) nomli, janubrog'ida esa Urgut (hozirgi O'zbekiston) nomli uchta ko'cha boshlanib, janubiy g'arbga qarab yunalgan edi. Bu uch ko'chani kundalang yunalishda turtta ko'cha kesib utgan. Ularning birinchisi Aleksandr nomli bo'lib, ruslar qabristoni hamda uning yaqinidagi cherkovga borib taqalgan. Ikkinchi va uchinchi ko'chalar Kaufman hamda Nikolay (hozirgi Mustaqillik va Jomiy) nomlari bilan atalib markaziy hisoblangan. Ayniqsa, Kaufman ko'chasi markaziy hisoblanib istirohat bog'i, savdo inshootlari va jamoa binolarini shahar markazi bilan bog'lagan. Janubiy-g'arbda shaharni chegaralab turgan ko'cha general Chernyaev nomi bilan atalgan va u yerda kuproq harbiy qumondonlar o'z bog'-hovlilarini qurishgan. Shu tufayli shaharning janubi-g'arbiy qismida 1883 yilda harbiy gospital va uning mutahassislari uchun turar-joylar qurilib, yangi shahar xududi 270,5 gektarga yetkaziladi.

Yangi shahar kengaya borgach, harbiylar soni ham kupaya boradi va bir necha harbiy qismlar shaharning chekkalarida urnashtiriladi. Harbiy qal'a oldi keng ochiq maydon qilinib, mabodo quzg'olon kutariladigan bo'lsa, kaftdek kurinadigan qilib ishlanadi. Harbiy qal'a burjlari mustaxkamlanib, maydonga qarata yangi burjlar quriladi. Temiryo'l qurilgach, shaharga evropaliklarning kirib kelishi yanada tezlashadi. Yangi sanoat binolari - un zavodi, vino zavodi, pivo zavodi va boshqa zavod-fabrikalar qurila boshlanadi. Butun Turkiston ulkasidagi 14 ta un zavoddarining 8 tasi Samarqanda edi. Mahalliy xom-ashyo asosida mahalliy resurslar ekspansiyasi avj oladi. Samarqand statistika boshqarmasining 1893 yildagi ma'lumotiga qaraganda, eski shahar axolisi 30 ming kishidan sal ortik bo'lgan bir paytda yangi shahar aholisi 10128 kishini tashkil etadi. Ularning 4828 nafari harbiylar bo'lgan. Shaharning yangi qismida bog'lar, keng bulvar va kuchalar ravon ariklar bunyod etiladi. Eski shahar esa yana XIV asr xududida qolib ketadi. Eski shaharga kiradigan barcha kanal va

ariqlarning boshlanish yunalishi yangi shahar tomonda edi. Bu puxta uy lab qilingan ish ham strategii, ham gigienik maqsadni kuzda tutgan[12].

Ruslar Samarqandni bosib olganidan keyin 30 yillar utgach, bu yerda topilgan boyliklar o'z samarasini bera boshlaydi. Agar mana shu davrgacha baholi-qudrat imoratlar qurilgan bo'lsa, endi qulga kiritilgan daromadlar hidsobidan mahobatli imoratlar qurilishi boshlanadi. Buni birinchi navbatda general gubernator uyi, vinzavod direktori D.L. Filatovning uyi, harbiy injener M.A. Tumanov, savdogar A.Kalantarov uylari misolida kurish mumkin. Kapitalning kirib kelishi 1899 yilda Rus-xitoy banki (xozirgi Sam DU rektorata), 1908 yilda Rus davlat banki(xozirgi Tashki iqtisodiy faoliyat Milliy banki Samarkand viloyat bo'limi) kabi imoratlarning qurilishini taqozo etdi. Bu binolar rejaviy tuzilishi vatashqi kurinishi bilan milliy me'morchiligimizdan mo'tlaqo farq qilar edi.

Abramov bulvarida 1902-1904 yillarda qizlar gimnaziyasi (SamDU biologiya fakulteta), 1911 yilda shahar kutubxonasi (xozirgi bolalar va usmirlar kutubxonasi), 1912 yilda Alekseev cherkovi, 1916 yilda Katoliklar kosteli va boshqa binolar quriladi. General gubernator Abramov mahalliy axoli bilan ruslar orasida vositachilik sifatida Buxoro yaxudiylaridan foydalanadi. Ularga homiylik qilib, eski shadarning shardiy qismidan katta xududni ajratib beradi. Bu endi Rossiya kapitalining Samarqandda barqaror urnashganidan dalolat berardi. Biroq Rossiyada yuz berayotgan siyosiy ahvol bir necha muddatdan so'ng bu yerda ham o'z aks-sadosini topadi.

Shulardan biri 1917 yilda bo'lib utgan Oktyabr davlat tuntarishi bo'ldi. Samarqand 1918 yildan boshlab Turkiston Sovet Avtonom Respublikasi va 1924 yildan boshlab O'zbekistan sotsialistik Respublikasi tarkibiga kirdi. 1928 yildan - 1930 yilgacha uning poytaxti bo'ldi. Mana shu davrdan boshlab mahalliy aholi yashab kelgan eski shahar va evropaliklar yashab kelayotgan yangi shahardan qanday qilib yagona, organik aholi yashash punkti yoki yaxlit shaharga aylantirish muammosi shaharsozlar oldida kundalang bo'lib turibdi.

1.2.An'anaviy me'moriy obidalar va ularning fasadlari

An'anaviy me'moriy obidalarimiz shakillanishi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ko'hna tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan mo'jiza kabi ajoyib me'morchilik obidalari o'tadi. Qadimiy imoratlar, inshootlarning har biri inson qo'li bilan tiklangan, uning har bir g'ishtida bobolar nafasi seziladi. Asil san'atkorlar ijodi, fantaziyasi, mehnatlari o'laroq tiklangan binolarda mo'ayyan davr madaniyatining in'ikosini ko'ramiz. Nozik did, yuksak mahorat, yorqin daho bilan ijod etilib, barpo bo'lgan yodgorliklar xalqning madaniy boyligi, faxri va g'ururidir[13].

Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq me'morchilik paydo bo'la boshladi, bu davr iptdoiy jamao davriga to'g'ri kelib iptdoiy odamlar o'zlarining tabiiy ehtiyojlari hamda tabiat noqulayliklaridan muhofaza qilish maqsadida oddi chayla, kulbalar qurishgan. Kiyinchalik mehnat qurollarining takomillashishi hamda dehqonchilikning rivojlanishi natijasida ilk qadimgi davlat uyishmalari paydo bo'la boshladi.

Millodgacha bulgan I ming yillikda Baqtirya, So'g'd, Xorazim kabi ilk davlat uyishmalari shakillanadi. Qal'alar yarim doira shakildagi minoralar, o'qchilarga moslashgan maxsus shinakla bilan qurila boshlagan. To'g'ri burchakli hamda doira shaklidagi konstruksiyalar qala devorini tashqi tomondan mustahkamlagan. Qal'alarining fasadlari asosan mudofa maqsadlariga yunaltirilganligi bilan haraktirlanadi. Millodan avvalgi IV asrdan to milodiy IV asrlarda Mamlakatimiz hududida qalin mudofa devorlari bilan mustahkamlangan qal'alar barpo etila boshlagan, bular: Turoqqal'a, Jonbosqal'a, Dalvarzintepa, qurilisda asosan yog'och, loy, guala, paxsa va xom g'ishtlardan foydalanishgan.

Milloddan avvalgi IV-II ming yilliklarda O'rta Osiyo hududida urbanizatsiyon jarayonlar vujudga kela boshlaydi. Qadimiy davlatlar yuzaga keladi. Kiyinchalik O'rta Osiyoning katta qismi Axamoniylar davlati tarkibiga kirgan (mill. avv. IV asrda), makedoniyalik Iskandar saltanatining, sal kiyinroq

(mill. avv.III asrning o'rtalarigacha) sosoniylarning hukumronligida bo'lgan[14].

Milloddan avvalgi III asrdan milodiy III asrgacha Osiyoning xususan Markaziy Osiyoni Iskandar Makidoniski boshliq yunon qo'shinlar tomonidan istilo qilinishi madamiy sohada ham tasiri sezildi, antik davr madaniyat elinizim davrini boshlab berdi.Bundan so'ng Yunon-Baqtriya va Kushon podsholigi davrlarida qurilgan saroylar hashamatli va murakkab kompazitsiyaga ega bo'lgan (markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli xonalar bilan o'ralgan, bino fasadlarida ko'p ustunli ayvonlar tutash qilib qurilgan)[6].

Kushon podsholigining barham topishi Markaziy Osiyo o'zining elinistik an'analarini aks ettirgan ma'daniyat va iqtisodiyoti inqiroziga olib keldi. Bu esa quldorlik munosabatlarining tanazzuli bilan bog'lash mumkun. Endilikda kiyingi davrlar dehqon-feyadal munosabatlarining shakillanishi bilan xarakterlanadi. Shuning natijasida bu davrda (III-IV asrlar)dagi shaharlar qurilishida avvalgi davrlardagiga nisbatan o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'rta Osiyo me'morchiligida yangi satsial hayot yuzaga chiqadigan bino-feadal ko'shlari barpo bo'ladi. Feadal ko'shklarining qadingi xarobalari bo'tun O'rta Osiyo hududida tuproq-tepaliklar sifatida uchraydi[15].

Mamlakatimizda me'morchilik qadimda shakillanganligini kumush idishga ishlangan tasvirda ham o'z aksini topadi. Bu tasvirni M.M Vaxitov VI-VII asrga mansub bo'lgan qal'aning fragmenti tasvirlangan 1-rasm [6] diydi. P.Sh Zohidov "Me'mor olami" kitobida ko'shk tasviri deb keltirilaqi[13]. Bu tushunchalarni mo'hokama qilmoqchi emasmiz. Tasvirni kuzata turib bino fasadi tasvirlanganini, unda ajdodlarimiz tamonidan me'morchilik qonun-qoidalari mukammal ishlab chiqilganligini, fasad kompozetsiyasida tak-kursisi, vujud, astona va badiiy tugallik qisimlariga nechog'lik rioya etilganligini ko'rishimiz mumkun.



VII-VIII asrlarda O'rta Osiyoning arablar tomonidan ishg'ol qilinishi mamlakatimiz miqyosida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Arablar tomonidan bir qancha me'moriy obidalar, tasviriy san'at asarlari buzib tashlandi va yo'q qilinadi. Bunga sabab qadimdan bu ulkada otashparaslik, Buddezim dinining mavjudligi ayrim imoratlarda ham ta'siri sezilar edi. Islom dinini tarqatish, unda belgilangan jonli narsalar tasvirini ishlash man qilingan edi. Shu sababli qarib bir asir milliy san'at tushkunlikka tushib qoldi. Arablar tomonidan bosib olingan yirlarda islomni keng yoyish maqsadida turli joylarda otashparaslik ibodat xonalari o'rniga masjidlar qurila boshlandi. Shundan so'ng me'morchilik, binokorlikda jonlanish seziladi.

Arablar O'rta Osiyoga kelganidan keyin me'morchilikka aytarliq yangilik qo'shmadilar, lekin birinchi masjidlar ular kelgandan keyin, islom dini joriy etilganidan keyin qurila boshlangan. Samarqandda birinchi bo'lib Hazrati Hizr masjidi qurildi. Keyinchalik, IX-XII asrlarda va ayniqsa temuriylar davrida masjidning hajmiy-rejaviy va kompozitsion yichimlari rivojlandi.[\[16rusch yozish\]](#)

IX asrning birinchi choragiga kelib, bu davrdan boshlab madaniy taraqqiyot asta sekin yuksala boshlaydi, bunga sabab Arab halifaligi hukumronligi susayishi va O'rta Osiyoning boshqaruvida mahalliy hukumdorlardan somoniylar tasarrufiga o'tishi, asta sekin markazlashgan davlatchilik shakllanishiga sharoit tug'dira boshladi. Somoiylar davrga kelib me'morchilikda O'rta Osiyoga xos bo'lgan an'anaviy binolar shakllana boshladi. Me'morchilikda pishiq g'isht keng qo'llanila boshladi. Pishiq gisht oldindan ma'lum bo'lsada, ular asosan otashparaslik ibodatxonalarining poltushamalariga yotqizilar edi. Bu davrda qurilgan va bizgacha yetib kelgan, eng mashhur obida bu Ismoyil Somoniy maqbarasidir. Bino nafis bejirim, birinchi boqishdayoq mo'jaz nafis va mutanosib shakli, tuzilishi, bezaklari bilan tomashabenni o'ziga rom etadi. U oddiy g'ishtdan foydalanib, ajoyib go'zallik namunasi yaratilgan. Bino asosi kub hajm va uning ustidagi gumbazdan tashkil topgan. Bino fasadi to'rt tarafi burchagida g'ishtin guldasta o'rtasida ravoqli yo'l. Ravoq osti ilgari

yog'och eshik yoki panjara bilan cheklangan. Bunday binolarni odatda chordara nomi bilan atashgan.

Binoning turt tomoni ham bir xil qilib ishlangan. Devor o'rtasidagi ustma-ust ravoqlar ustunchalarga tayangan. Tashq ravoq tepasida bag'al(timpan) g'ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetida mayda g'isht bilan ishlangan chorsi tumor. Devor tepasida kungirasimon o'ntadan darcha. Harbir darcha hoshiyalangan, ikki chetida morpech ustuncha. Tomda gumbaz va to'rt qubba.

Maqbara jozibasining yana bir siri uning geometrik to'zilishidagi o'zaro bog'liqligidir. Uning har bir o'lchami boshqa bo'laklarga mutanosib nisbatda belgilangan. Binoning proporsiyalari oddiy chorsi g'isht ($23*23*4$) tomoni va diaganali bilan bog'liq o'sib boruvchi dinamik kvadiratdan iborat ekan.[17] Maqbaraning barcha fasadlari bir xil qilib ishlangan. Devorlar ichkari va tashqari tomondan bezakli qilib yuqori sifatli pishgan g'ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o'ymakorlik usullaridan ham foydalanilgan. Dekorativ g'isht terish inshootga yingillik ifodasini baxsh etgan. Kirish eshik (astonasi) bino vujudidan ichkariga kiritilib ishlangan. Bunga sabab kiyinchalik rivojlangan peshtoqning butun bino fasad vujudini egallagani ko'rishimiz mumkun.

Yuksak professional darajada barpo etilgan bu tarixiy yodgorlik o'sha davr eng tajribali quruvchilarini, eng qobiliyatli me'morlarni loyhalash va qurish usullari bilan qurollantirganiligi, ularning bilim va malakalarini oshirganligi nechog'lik sir emas.

X asrlarda xom g'isht texnikasi mukammallashib, monumental binolar tarzining peshtoq qismida pishiq g'isht qo'llanila boshladi. Gumbazli shiftlar va pishiq g'ishtdan mahsus tayyorlangan turli geometrik shakildagi bezak (ko'ndalang, bo'ylama, qirra, burchak, aylana va b.) ayniqsa Somoniylar maqbarasi pardoz ishlarida yaqqol nomoyon bo'ladi. Binoning asosiy badiiy aniqligi qiyofasi yorug'lik-soyalar vositasida ham nomoyon bo'ladi.

Islom dinining O'rta Osiyoda o'rnatilishi me'morchilikda ham o'zining sezilarli aksini topdi. Masjidlar va har-xil diniy ahamiyatga ega binolar qurish

hamda ularning tashqi va ichki kurilishiga e'tibor shariat talablaridan kelib chiqqan edi. O'z davrida bu kabi talablar xalqni dinga, ibodatga e'tikod qilish uchun zarur bo'lgan. Me'morlar masjidning ichki va tashki kurilishini va mehroblarini o'zining bejirim, tantanavor bezaklari bilan bezashgan.

Shuning uchun ham IX-X asrlardan boshlab, masjidlar ichki va tashki bezagida dekorativ element sifatida arab yozuvi chiroyli husnixat sifatida qo'llanila boshlandi. X asrlarda xom g'isht texnikasi mukammallashib, monumental binolar tarzining peshtoq qismida pishik g'isht qo'llanila boshlandi.

Gumbazli shiftlar va pishiq g'ishtdan maxsus tayyorlangan turli geometrik shakldagi bezak (kundalang, bo'ylama, qirra, burchak, aylana va b.) lar, ayniksa Somoniylar makbarasi pardozi ishlarida yakkol namoyon bo'ldi.

XI-XII asrlarga kelib, me'morchilikda peshtoq, nayzasimon ichki ravoqli tarz(fasad)da, minoraga pishiq g'ishtdan naqish terish O'rta Osiyoga xos uslublardan bo'lib qoldi. Binolar tarxi asosan tug'ri turtburchak, kvadrat shaklga ega bo'lgan. Mahobatli qurilmalar tarzini(tashqi ko'rinish-fasad) bezatish uchun o'yma terrakotali g'ishtlar (xom g'ishtda quritmasdan, pishirmasdan oldin uyma bajarilgan, bu esa nozik pardozni bajarishga imkon bergan) keng tarqala boshlagan.

XII asrga kelib, masjid yonida minoralar qurish san'ati keng tarqaldi. Tashqi bezak sifatida pardozlangan bezakli g'ishtlar IX-XII asrlardan masjidlar ichki va tashki devorlarida, minoralarda foydalanilganligi ma'lum. Bu an'ana XX asrgacha davom etdi. Ruhobod masjidi minorasining tashki bezagi sifatida pardoz g'ishtlar foydalanilganligi, unda arab yozuvi grafikasi qo'llanligini kursatish mumkin.

O'rta Osiyoda XIV asrdan boshlab, murakkab va mahobatli binolar katta ulchamlarda qurila boshlandi. Bu esa me'morlarning majmualar ustida kompozitsion g'oyalarga kupgina yangi fikrlar, an'anaviy shakl va uslublarni qaytadan kurib chiqishga undadi. Shakllarning umumiy boyitilishi va ularning bezaklari seroblighi an'anaga aylandi. Bu me'morchilikda ulkan badiiy-estetik

ahamiyat kasb etadi. Me'morchilikda kupranglikka utishning yakuni shu asr oxiridagi me'moriy bezak san'atining eng ulkan yutuqlaridan hisoblanadi.[18]

O'rta Osiyo binolari fasadida mozaikalarida uslublashtirilgan gulli motivlar ustun bo'lib, kupgina hollarda tuq; kuk zaminda, kup rangli tantanali nakdshar yaratiladi. Shu bilan birga, pilanlarni va hashamatli ravoqli monumental peshtokdarni tuldiruvchi mozaikalar uchun, ularning bezagi kup qirraliligiga qaramay, xar bir naqishning kompozitsion tuzilishi asosida jiddiy anik matematik hisob va geometriyalashtirish yotadi.

Ma'lumki XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand viloyati Chor Rossiyasi tasarrufiga o'tgan edi. O'zoq davom etmagan yarim mustaqillikdan so'ng, 1920 yildan boshlab Samarqand yagona ittifoqga birlashtirilgach, O'rta Osiyoga evropacha madaniyat faol kirib kela boshladi. Eski shahardan tashqariga keng qo'llamli ko'chalar o'tkazilib, yangi tipdagi imoratlar qurila boshlandi, bu ko'chalar bitta nuqtadan tarqalgandek bo'lib bir xil joylarda kesishib ketar edi. Har bir ko'chalarga yangi gotika va rus arxitekturasiga monand binolar qurilib yangi shahar barpo qilindi. Jumladan temir yo'l, aloqa vositalari, zamonaviy texnologiya, meditsina, maorifining kirib kelishi, Samarqandga yangicha fikrlashni yuzaga keltirdi. Ayniqsa shaxsiy mulkka bo'lgan qarshi kurash, bu tushunchani keskinlashtirdi va 1920-1940 yillarda shaxsiy mulk egalari qatorida, hunarmandchilik ham qatag'onga uchradi.

Natijada yuz yillab va ming yillab shakllangan hunarmandchilikning qator an'analari unutilib yuborildi. O'sha davrlardagi alifboning ustma-ust isloh qilinishi, yangi avlodni tarixiy manbalardan ajratib quydi[19].

Bu holat me'morchilik va shaharsozlikda ham o'z aksini topdi. Samarqand me'moriy obidalari yuqori bilimga ega bo'lmagan oddiy xalq, tomonidan bunyod etilgan degan, proletariatcha uydirma yuzaga keldi. Vaxolanki, bugungi kunda bu mu'jizakor inshootlar o'rta asrlarda yuqori darajada rivojlangan ilm-fan maxsuli ekanligi barchaga ayon.

Olimlardan Bulatov M.S., Zoxidov P.SH., Kryukov K.S., Mankovskaya L.YU., Pugachenkova G.A., Rempel L.I. va boshqalar Samarqand me'moriy obidalarining maxsus loyihalashtirish vositasida qurilganligini, uning asosida chukur bilimlar yotganligini isbotlab berganlar [20,14,21].

Amir Temur davrida shakllangan peshtok va anfilada tarzida ketma-ket quriladigan gumbazli xonalar kompozitsiyasi kurinishidagi xonaqohlar Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Hirot va Turkiston shaharlarida keng qo'llangan, tabiyki, fan va texnikaning yuksak taraqqiy etishi bino va inshootlar qurilishida turlicha qurilish materiallari va konstruksiyalarni qo'llashni takozo etadi. Shu tariqa yangi usullar paydo bo'lgan. Masalan: Samarqanddagi Ruhobod (Burxoniddin Sogarjiy) maqbarasi oddiy g'ishtdan tiklanib, gumbazi 32 burchakli konstruksiya ustiga qurilgan bo'lsa, Shohi Zinda, Guri Amir va Bibixonim majmualarida turlicha gumbaz konstruksiyalari hamda shakllarini uchratish mumkin. Biron bir gumbaz o'z shakli va qurilishi jihatidan boshqasini takrorlamaydi. Bu davrda turkistoni, balxi, mirzoi singari 50dan ortik bir va ikki qavatli gumbaz hamda gumbazosti qurilmalari qo'llanilgan va takomillashtirilgan.

Binolar pardozida parchin, koshin, koshinburush, kundal, kirma, ganch uymakorligi, oddiy va charxlangan g'ishtni turlicha terish usullari (buylama, kundalang, qiyalab, yotqizib, qirralab), tosh hamda marmar, sopol, yog'och, ganch va boshka materiallardan ishangan turli badiiy vositalar qo'llangan. Usha davrda yaratilgan ilgor qurilish texnologiyasining katta qismi **hozirgacha** o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Masjidlar ayvoni ustunlari, masjidga kirish eshiklari, yogoch uymakorligi, ichki va tashki devorlar ganch uymakorligi, ba'zida koshinkorlik naqshlari, shiftlar esa asosan har xil rangli buyoqdar (ranglar) bilan bezatilgan.

Bu davrga xos bo'lgan binolar tipologiyasiga asosan jamoat binolari qurilishiga ko'p hollarda fasadida koshinkorlik, mazayka usullaridan keng foydalanganligini ko'rishimiz mumkun.

Turar-joylarga keladigan bo'lsak, Pugachenkova G.A., Nil'sonlarning ilmiy tadqiqotlaridan xulosa qiladiganda, ular oddiy tashqi kurinishi biroz bejirim, tabiiy sharoitlarga mos qilib, yozda salqin, qishda esa bir muncha iliq muhit xosil qilish maqsadida turlicha elementlardan keng foydalanilgan. Bu qoidalar binolarning fasadlarida ham o'z aksini topgan. Ular tashqi ko'rinishidan me'moriy obidalarni to'ldiruvchi vazifasini o'tagan diyish mumkin. Fasadlari asosan balkon, bolaxona, deraza, darvozaxona kompozitsiyalari bilan ajralib turadi, derazalar tor, panjaralar bilan tusilgan.

Binolar qurilishida asosan mahalliy tabiiy hom ashyolardan keng foydalanilgan bo'lib, bular pishiq g'isht, guvala, xom g'isht, paxsa, yog'och sinchlardan keng foydalanilgan. Pardozi ishlarida loy sivoqdan, ganch qotishmalaridan foydalangan. Ayvonlar balor, yog'och o'ymakor ustunlardan ishlangan. Ularni ishlashda badiiylikka katta e'tibor berganligi sir emas, ustunlar o'ziga xos, darvozalar naqshinkor, tom yopmalari yog'och balorlar hamda vassa (yog'och g'ulacha)lar taxlanishidan bejirim kompozitsiya xosil qilgan.

Turarjoylarning rangi ham bir muncha iliq ranglarda gavdalanadi. Bularning hammasi tarixiy turarjoylarga xos bo'lgan xususiyatlardan iboratdir.

Samarqand shahar tarixiy ko'chalar kompozitsion muhit strukturasi o'rganib chiqqanda, umumshahar monument ansambl va undagi ko'chalarni hamda mahalla markazlarini analiz qilib taqqoslab qarasa, kichik mahalla ansamblar umumshahar ansamblar bilan kompozitsion rejaviy tuzilishi, naqshinkorligi, ko'chalarning keng va torligi bilan kontrast bo'lib bir-biridan ko'zga yaqqol tashlanib farq qiladi. Bundan maqsad asosiy inshootlarni ajratib kursatishdan iborat bo'lgan.

Bunga katta inshootlardan Bibixonim jome' masjidi, Registon maydoni, Guri Amir va Shohi Zinda majmualari misol bo'la oladi. Ular Samarqandning eski tarixiy shahar qismlarida joylashgan bo'lib, o'zining kompozitsion masshtabi va silluyeti bilan mahalla ansamblaridagi ko'chalar va shu mahallada joylashgan turar-joy binolaridagi ichki ko'chalardan yaqqol ajralib turadi. Ular nafaqat mahallada joylashgan

ko'chalardan balki bir-biridan ham farq qilgan. Masalan: shahar markazida joylashgan inshootlar ko'chalari kattaroq, shu shahar masshtabiga moslashtirgan bo'lib, odamlar yo'laklari ham kengroq bo'lgan. Chunki katta masshtabli inshootni to'liq ko'rish uchun o'zoqroqdan ko'rish kerak bo'lgan va shunga moslashtirib ko'chalar ham keng va katta bo'lgan. Hamda boshqa mahalla markazlarga joylashgan me'moriy ansambllar joylashgan ko'chalar ham, shu mahallaning bir qavatli tipovoy joylashgan ko'chalardan, mahalla ichkarisida bo'lgan ko'chalardan, shu kompozitsion mutanosiblik masshtabni buzmasdan nafaqat hajmi bilan, balki unga berilgan vazifalardan va shu erda joylashgan muhiti bilan yaqqol ajralib turadi. Bunday sabablardan biri ushbu ko'chalarda joylashgan me'moriy obidalarining ranglari sovuqroq ranglarda bo'lib, uni o'rab turgan atrof muhit qurilmalarning ranglari esa iliq tondan iborat bo'lgan va ko'cha tomon qaratilgan devorlar loy somon shuvokdan yoki pishiq g'ishtdan iborat bo'lgan[22].

1.3.Zamonaviy qurilgan binolar va ularning fasadlarini o'rganish

Ajdodlarimizning me'morchilik soxasidagi ulkan yutuklarini davom ettirgan xolda hozirda viloyatimiz me'morlari tomonidan milliy va zamonaviy usullarda kuplab madaniy-maishiy, jamoat va ishlab chikarish binolari qad kutarmokda. Milliy turar-joy qurilishi me'morchiligining o'ziga xosligi turlicha, ya'ni ijtimoiy-iktisodiy, tabiiy-iqlim sharoitlariga badiiy-estetik va texnik rivojlanishga bevosita bog'lanadi.

Tarixiy davr qurilishidagi turar-joy binolarida shu narsalar yaqqol seziladiki, issik iqlim sharoitiga moslanishi xizmat kursatish va badiiy estetik talablar maxalliy qurilish ashyolarida foydalanilganligi, hozirgi davr qurilishiga nisbatan puxta o'rganilib, hayotga tadbiiq etilgan[23].

Darhaqiqat, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo jahon me'morchiligining gultojisi, desak xato bo'lmaydi. Buyuk jahongir Amir Temur «Kim bizning

qudratimizga shubha bilan qarasa, biz qurgan binolarga boqsin» - deb bejiz aytmagan. Bugungi O'zbekistan Mustaqillik solnomasining 25-yilida barcha jabhalar qatori, me'morchilikda ham o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'ldi. Zero, ajoyib va serviqor, salobatli va shaklan uyg'un xolda qurilgan muhtasham binolar inson tafakkurining bebaho maxsulidir. Serquyosh yurtimizning bir bulagi hisoblangan Samarqand shahrida ham bir qator zamonaviy binolar qad kutardi.

Bugungi kunda shahrimizning tarixiy qisimlarida zamonaviy binolar qurilishi olib borilmoqda, bu binolar o'zining badiiy fazoviy yichimi bilan an'anaviy me'moriy obidalarimizga mos holatda qurilayotganligini ko'rishimiz mumkun. Guri Amir atrofidagi mehmonxonalar, Dahbed ko'chasidagi turar-joylar, mehmonxonalar va bazimgohlar qurilishida milliy me'morchilik an'alaridan keng foydalanilganligini kurishimiz mumkun. Binolar yaxlit kompozitsiyon yichimiga ega . Binolar kompozitsiyasida takkursi, ostona (kirish), vujo'd (asosiy hajm) va badiiy tugallik qisimlari mutanosibligi hamda ularning vujudga bo'y sunishini, ranglar kompozitsiyasining uyg'unligini, naqshlarning milliy va zamonaviylikni o'zida aks ettirishini kuramiz.

Bu an'ana tarzida bugungi kunda shaharning sharqiy-janubiy ko'chalaridan bo'lgan Registon maydonini Abdi-Dorun me'moriy komplekslari bilan bog'lab turgan Panjakent ko'chasi misolida ham yaqqol kurishimiz mumkun. Bu ko'chada bugungi kunda milliy me'morchiligimiz bilan tuyingan, o'zida zamonaviylikni aks ettirgan binolar qurilishi keng quloch yoygan. Bularning hammasi tarixiy binoladimizga xamohanglik taminlashda ma'lum bir muhum o'rinni egallaydi.

Ular jamoat binolari yoki turar-joy binolari bo'ladimi, bugungi kunda tarixiy shaharning nechog'lik tarixiyiligini, binolar qurilishi an'alarini saqlab qolishga ma'lum bir darajada asos bo'la oladi diyish mumkun. Ularning qurilishida asosan binolarning tashqi kurinishi, fasadlari milliy usullarda qurilmoqda. Ichki kurinishida xonalari esa zamonaviy barcha qulayliklarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu tarixiy qisimda qurilgan binolar qurilishida

asosan milliy obidalarimizga xos bo'lgan materiallardan koshin, dekodevni g'isht, uymakor eshiklar va panjaralar zamonaviy maqsadlarda keng foydalanilmoqda. Bu materiallar asosan zamonaviy binolarning fasadida qo'llanilmoqda.

Ularda g'isht terish texnikasi ham tarixiylikka mos keladi, bu qurilgan binolar asosan jamoat binolari bo'lib, ular ma'lum bir miqdorda koshinkorlik bezaklari bilan jilo berilganligini ko'rishimiz mumkun. Bu an'ana milliy me'morchiligimiz qoidalariga tula mos keladi.

Ammo bu tarixiy qisimlarda bu ijobiy holatlarning aksi ham mavjudligini unutmasligimiz kerak, bazi bir jamoat binolarimiz butkul tarixiy shaharga mos emasligini nomoyon etmoqda. Masalan: Dahbet kuchasidagi "Tillakori" bazimgohini oladigan bo'lsak bu bino fasadi yahlit kompozitsion yechimi bilan, hamda ularda qo'llahilgan badiiy elimentlari bilan ham tarixiy qisimga mos kelmasligini kurishimiz mumkun. Bunday misollarni bir qancha keltirishimiz mumkun.

Registon maydoni ansambli mujasamlashgan kompazitsion bir-biri bilan muttanosib uchta (Ulugbek madrasasi, Sherdor madrasasi va Tillakori madrasasi) ulkan va xashamatli inshoatni o'z ichiga olib yaxlit ansambl kompozitsion maydonni ya'ni Registon maydonini tashkil qiladi.

Registon Samarqand shahri tarixiy qismining o'rtasida joylashgan bo'lib, guyo Samarqandning yuragi hisoblanadi. Tarixiy shahardagi deyarli hamma ko'chalar Registon maydoniga olib boradi. Samarqand shahar tarixiy qismi guyo yagona organizmga o'xshab unda ansamblga olib boruvchi ko'chalar yurakka intiluvchi qon-tomirlaridek guyo.

Registon ansambli joylashgan ko'chalar yaqinida masjidlar va madrasalar, bozorlar va karvonsaroylar, hukumat saroylari va davlatmandlarning turar-joy binolari qurdirilgan. Bu asosan ansamblar joylashgan ko'chalarning eng yaxshi namunalari bilan estetik jihatdan tashkillashtirish va tarbiyalash rolini uynagan.

Me'moriy ansamblar joylashgan ko'chalar strukturasi, tarixiy ko'chani

aks etib ayvonlar, lojiyalar, peshtoklar, uymakorlik bilan ishlangan yog'och stunlar ko'chani ulug'vor tarixini kursatadi. Registon ansambli, Bibixonim masjiti Shoxi Zinda ansambli, Guri Amir maqbarasi kabi individual inshoot kompozitsiyalar, shaharni vertikal silueti hisoblanib, ular nafakat mahalla xatto shaharni dominanti desak ham xato bo'lmaydi. Shuni aytib utish joyzki tarixiy qismlarda joylashgan axoli kvartallar, xamda shaharni tarixiy qismida joylashgan turar joylar, ko'chalar kompozitsiyasi, me'moriy ansamblar joylashgan ko'chalarning kurkam muhitini ta'minlaydi.

Registon issiq iqlim sharoiti uchun zarur bo'lgan Samarqand me'morchiligidagi binolar kompozitsiyasi tarixiy ko'chalar shakllanishining yana bir yo'nalishi "Hajmdagi fazo" usulidir. Bu yo'nalishda bunyod etilgan Registon ansambli faqat maydon yoki sahnlik tashkil etibgina qolmasdan, balki ushbu maydon va sahnlikda qulay mikroiqlim yaratish maqsadidan ham kelib chiqqan.

Bizga ma'lumki, har bir shaharning ma'muriy inshooti oldida farmonlarni e'lon va ijro etadigan maydoni bo'lgan. Bosh bozor, sahna, savdo chorraxalari ko'chalar bo'ylab ketgan rastalar, jome' masjidleri, madrasalar asosida shakllangan ma'rifiy, markaziy kabi qismlari bo'lgan. Mana shu yerdagi imoratlar ansambl tarzida qurilgan. Bular odatda juft, qo'sh, maydon va bir kompozitsion o'q bo'ylab joylashtirish usullarida bunyod etilgan.

Samarqandda markaziy maydon vazifani Registon maydoni bajargan. Bu xususiyatni bugungi kunda ham yuqotmagan bu ansambil qarshisida "butkul boshqacha manzara" nomutanosib xolatlarning mavjuti insonni tarixiy shahar muhitidan bir muncha chalg'itishi tabiiy holatga aylanmoqda. Ansamblning qarshisida zamonaviy qurilgan "Registon" savdo majmuosi fasadida ochiqdan-ochiq zamonaviy metal konstruksiyaning qo'llanilganligi, yahlit kompozitsiyaning buzilganligi va ranglar koloretining muhitga nisbatan birinchi fonga intilishini bir boqishda sezish qiyin emas. Bundan tashqari tarixiy ichki ko'chalarda ham axvol diyarli shu xolatga kelayotganligi ma'lum bo'lmoqda.

Ko'chalarning tarixiy rivojlanish urinlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan, binolarda-turarjoylarda ham asliy an'anaviylik saqlanib qolganligi malum. Umumiy olganda tarixiylik vujudi saqlanib qolgan, ammo fasadda ranglar koloreti tula ochilmagan, salbiy holatlar ham mavjul. Turarjoylar qulaylik tomondan o'ta zamonaviylik kasb etgan. Ularning tuzilishi evropa arxitekturasiga xos bo'lgan elementlarning tug'ridan-tug'ri qo'llanilayotganligini ko'rsatadi. Yuqorida aytib utilgan bir qancha jamoat binolari qaysidir ma'noda insonlar ongiga salbiy urnak bo'lmoqda.

1 bob xulosasi

Samarqand jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo'lib, dunyo madaniyati va ilmu-fani xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan shahardir. Bugungi kunda Samarqandda 290 dan ortiq arxitekturaviy va 2 mingga yaqin arxiologik yodgorliklar mavjut. Tarixchi va adiblar bu shaharni Sharq musulmon dunyosining qimmatli durdonasi, "Sharq Rimi" deb ham ataydilar bejiz emas. Chunki uning yoshi olimlarimiz va dunyo olimlari tomonidan 2750 yoshda ekanligi isbotlandi. Shu sababli Samarqand g'arbda qadimiy Rim, Bobil va boshqa qadimiy shaharlar qatorida turadi.

Samarqand eski shahrining bugungi hududi XIV asrda shakllangan bo'lib bu davr Temuriylar davriga tug'ri keladi. Ungacha u ikkita muhim bosqich orqali kengaygan, bular: VIII asrda qadimiy shaxriston (Afrosiyob); IX asrda ark va shaxristonni o'zichiga oluvchi rabot. Shahar arxitekturasining shakllanishida XIII asrda mo'g'illar istilosi; XIV asrda – Temuriylar hukmronligi; XIX – XX asrlarda –qulab, Sobiq ittifoq davri yangi sotsialistik g'oyalarning kirib kelishi.

An'anaviy memoriy obidalarimiz shakllanishi bir qancha bosqichlar asosida shakllangan. Ular turli davrlardan bizgacha yitib kelgan utmish qadriyatlarini, milliy an'analarni saqlab avlodlarga yetkazib kelayotgan bebaho moddiy merosimizdir. Bu meros Sobiq ittifoq davrida bir muncha taziqqa

uchradi. Bunga sabab ular xalqni milliy o'zligini anglashga davit etuvch muhim omillardan biri edi. Milliy me'morchiligimizni oddiy qurilish namunasi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lganligi ma'lum. Baholanki bu binolarimiz qurilishida juda katta tajriba va qonuniyatlar yotganligino olimlarimiz tomonidan isbotlangan. Bu binolar shakllanishida qadimda Zardushtiylik imoratlari hissasi katta bo'lgan, ular kiyingi me'moriy obidalarimiz shakllanishiga genetik asos vazifasini o'tadi. Avval otashkada, chortoq, chordara, undan so'ng esa peshtoq kompozitsiyasi rivojlandi bu esa fasadlarda han o'z aksini topdi.

Ajdodlarimizning me'morchilik soxasidagi ulkan yutuklarini davom ettirgan xolda hozirda viloyatimiz me'morlari tomonidan milliy va zamonaviy usullarda kuplab madaniy-maishiy, jamoat va ishlab chikarish binolari qad kutarmokda. Milliy turar-joy qurilishi me'morchiligining o'ziga xosligi turlicha, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-iqlim sharoitlariga badiiy-estetik va texnik rivojlanishga bevosita bog'lanadi. Bugungi kunda shahrimizning tarixiy qisimlarida zamonaviy binolar qurilishi olib borilmoqda, bu binolar o'zining badiiy fazoviy yechimi bilan an'anaviy me'moriy obidalarimizga mos holatda qurilayotganligini ko'rishimiz mumkun. Guri Amir atrofidagi mehmonxonalar, Dahbed ko'chasidagi turar-joylar, mehmonxonalar va bazimgohlar qurilishida milliy me'morchilik an'alaridan keng foydalanilganligining guvohi bo'lamiz. Binolar yaxlit kompozitsiyon yichimiga ega . Binolar kompozitsiyasida takkursi, ostona (kirish), vujo'd (asosiy hajm) va badiiy tugallik qisimlari mutanosibligi hamda ularning vujudga bo'y sunishini, ranglar kompozitsiyasining uyg'unligini, naqshlarning milliy va zamonaviylikni o'zida aks ettirishini ko'ramiz. Ammo bu tarixiy qisimlarda bu ijobiy holatlarning aksi ham mavjudligini unutmasligimiz kerak, bazi bir jamoat binolarimiz butkul tarixiy shaharga mos emasligini nomoyon etmoqda. Masalan: Dahbet ko'chasidagi "Tillakori" bazimgohini oladigan bo'lsak bu bino fasadi yaxlit kompozitsion yechimi bilan, hamda ularda qo'llahilgan badiiy elimentlari bilan ham tarixiy qisimga mos kelmasligini kurishimiz mumkun. Bunday

misollarni bir qancha keltirishimiz mumkun. Bu binolar qubilishi bilan tarixiyqisimda yashayotgan insaolar ongiga salbiy urnak bo'lmoqda, ular qurilish ishlarida bu "salbiy an'anani" qo'llamoqda.

II-BOB.SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY QISMIDA SOBIQ ITTIFOQ DAVRIDA QURILGAN ESKI BINOLAR FASADLARINI TAMIRLASH VA QAYTA QURISH TAMOYILLARINI TADQIQ QILISH

2.1. Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilgan sobiq ittifoq davri binolar tipologiyasi

Sobiq ittifoq davrida qurilgan "mahalliy madaniyatni qaloq, chetdan kirib kelgani ilg'or" degan noto'g'i tushuncha paydo bo'lib, buning natijasida eski shahar qismida an'anaviy me'morchiligimiz o'zining teran tomirlaridan ajratib rivojlantirilishi holatlarini kurishimiz mumkim, endilikda bu holatni bartaraf etish uchun bu binolarning fasadlarini milliy me'morchiligimizga mos tarzda uyg'unlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish, va hayotga tadbqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun ularning tipologiyasini aniqlash talab etadi.

Rus kapitalizmi kirib kelishi natijasida turarjoy binolari, savdo inshootlari, maktab, cherkov kabi fuqaro inshootlari bilan bir qatorda fabrika, zavod, bank kabi yangi tipdagi binolar ham qurila boshlandi. Ularning qurilishida rus an'anaviy me'morchiligi shakllari bilan bir qatorda evropada taraqqiy etgan gotika, barokko va klasitsizm singari uslub belgilari nomoyon bo'ldi. Evropa me'moriy uslublariga mahalliy me'morchilik an'analari, qurilish materiallari, amaliy san'at namunalari ta'sir kursatib, an'anaviy me'morchilikka katta putur yetkazildi.

Samarqand shahrining tarixiy qismida bugungi kunda saqlanib qolgan sobiq ittifoq davri binolari tipologiyasi asosan kup qavatli turarjoy binolari va

jamoat binolarini (maktab, yotoqxona, o'rta qavatli turar-joylar yani 5 qavatli binolar) tashkil etadi. Bu binolar qurilishi bugungi kunda shaharsozlikdagi eng katta xatoliklardir hisoblanadi. Tarixiy qisimni kuzatar ekansiz siz buning go'vohi bo'lishingiz mumkin. Bu holatlar eski shaharning panoramasini nechog'liq bo'zib kursatayotganligini, ular bamisoli quti (karobka) shaklini eslatadi.

Urushdan keyingi yillarda Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Xiva va boshqa shaharlar bosh rejasiga o'zgartirishlar kiritildi va ommaviy qurilishning industrial uslublar, rejalashtirishning yangi tamoyillari hisobga olindi. Mazkur g'oya Samarqand shahri (T. Kalinovskaya, 1968-y.) rivojlanishning texnik-iqtisodiy asoslariga vosita qilib olindi.

Samarqand markazi eski shahar tuzilmasi shakillanishining kompozitsion va amaliy vazifalari murakkab va ma'suliyatlidir. Agar bog' va xiyobonlari bo'lgan o'zaro bir-biri bilan bog'liq arxitekturaviy inshootlar tizimi qaysidir darajada ijobiy hal etilgan bo'lsa, yangi majmuolar tuzilishi shahar tarixiy qiyofasiga yarashmaydigan emas, uni buzadi ham. Ayniqsa bu Samarqand bosh ma'muriy maydoniga taalluqli. Hozirgi Viloyat hokimiyati binosi qurilishi bilan Registonning go'zal manzarasi diyarli yo'qga chiqdi. Afsuski Registon maydonining o'zi ham qayta qurish chog'ida past qavatli uylar fayzidan mahrum bo'ldi. Guri Amir, Ruhobod va Oqsaroy maqbaralari yaqinidagi "Samarqand" mehmonxonasining o'n qavat binosi noqulay joylashganini ham ta'kidlab o'tish joyiz. U Guri Amirga to'g'ri olib keladigan universitet xiyoboni tomondan ham, teatr maydoni tomondan ham manzarani bekitib qo'ygan. Bu achinarli xatoliklar ko'plab olim arxitektorlar, tadqiqotlqrida tilga olib o'tilgan va bundan keyingi ishlovlar uchun tavsiyalar berilgan edi.

Shaharlarning bosh rejalari tahlillari shundan guvohlik beradiki, 1935-yildan Maskva shahrini qayta tiklashning kuplab jiddiy qoidalari, ilmiy metodik tamoyillari va amaliy tajribasi O'zbekiston arxitektorlariga yo'nalish berdi. Maskvani qayta tiklashning uslubiy tavsiyalaridan foydalanish ijobiy tajriba

taqdim etishiga qaramay, afsuski, betakror tuzilmas, muhiti bo'lgan janub shahrining spesifik xususiyatlari yitarlicha hisobga olinmagan. Yevropa shaharsozligiga xos bo'lgan tamoyillar-keng va ochiq bo'shliq, kuchli transport qatnovlari, kup qavatli turar-joy binolari ham doimo ham an'anaviy shaharsozlik madaniyati bilan kelishib ketavermaydi, bizda soyador, yarimochiq kenglik, kishi ko'ngliga mos keluvchi ichki turar-joy muhiti va shinam mahalla markazi ko'proq qadirlidir.

Urushdan keyingi arxitektura yo'nalishida amaliyotida arxitekturaning bezak tomoniga berilib ketish holati ro'y berdi va qurilish ishlab chiqarilishini inddustrlashtirish bilan qarama-qarshilikka borib qoldi. Bu "Loyhalashtirish va qurilishdagi ortiqchaliklarni bartaraf etish to'g'risida"gi 1955-yil 4-noyabr Hukumat qarori bilan taqib ostiga olindi. 50-yillar ikkinchi yarmidan O'zbekistonda arxitektura yo'nalishida o'zgarishlar sodir bo'ldi, ularning mohiyati qurilishning industrial usullarini keng tadbiiq etishga o'tishidan iborat. Turar-joy qurilishining keng dasturi nayinki turar-joy, balki ommaviy jamoat binolarining tipiy loyhalar ishlab chiqildi, ularga ko'ra faqat yangi shaharlar qurilib qolmadi, balki Samarqand, Toshkent, Buxoro kabi ko'hna shaharlar ham qayta tiklana boshlari. Tipiy "quti uylar" hamma yoqni tutib ketdi, hatto O'zbekistonning shaharlari xususiyatlari ham hisobga olinmadi[24].

Kam qavatli uylar (1—2 qavatli) bu uylar asosan eski shaharlarda hududlariga xos bo'ladi. Bu qurilish hususiyatlari bir muncha inobatga olinmagan edi.

O'rta qavatli uylar (3—5 qavatli) umumiy zinapoyadan hamma foydalanadigan liftsiz turar joydan iborat bo'lib, shaharlarda juda ko'p tarqalgan, ular iqtisodiy jihatdan foydali deb topilgan. Bundan tashqari bu xildagi uylarni qurish aholni nisbatan zichroq joylashtirish imkoniyatiga ega. Ammo eski shaharga xos bo'lmagan hususiyatdir. Shuning uchun eski shahar sharoitida o'rta qavatli uylarni qurish maqsadga muofiq emas.

Bo'linmaii seksiya tuzilishiga ega bo'lgan uylar sobiq sobiq Ittifoq paytida turli iqlim sharoiti mavjud bo'lgan joylarda qurilgan. Yo'lakli va gale- reya

turidagi uylar esa asosan kamxonal xonadonlarga mo'ljallangan bo'lib, yo'lakli uylar Sobiq ittifoqning o'rta qismida, galereyali uylar esa janubiy qismida qurilgan.

60-70-yillar O'zbekistonning zamonaviy arxitekturasini rivojlantirish yo'llarini tavsiflar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, qurilish industriyasi-zavod uy qurilishi, soddalashtirish va past sifat o'z navbatida hamma joyda, ayniqsa ommaviy qurilish inshootlarida ko'zga tashlanuvchi bir xillikka olib keldi.

Sho'rolarning totalitar tuzumi bilan bog'liq urbanizatsiya (shaharlashtirish) jarayoni muayyan salbiy xolatlar keltirib chiqardi:

-madaniy meroslar yo'q qilindi (Samarqanddagi qa'la, bog'-park san'ati, qimmatli xalq turar-joylari, qadimshunoslik va arxitektura yodgorliklari);

-“eski shahar” qismatiga, hususan muhandislik infrastrukturasi nisbatan mutlaqo befarqlik. Bular barchasi madaniy merosning yo'qolishiga, eski shahar tub aholisi hayot darajasini yomonlashiviga hamda eski shaharning me'moriy muhit qiyofasining buzilishiga olib keldi.

2.2. Sobiq ittifoq davri binolari fasadlarini tamirlash va qayta qurish talablarini o'rganish

XIX asrda Samarqandni Chor Rossiyasi qushinlari bosib olgach, Amir Temur arki o'rnida o'z istehkomlarini qurib, uning shimoliy g'arbiy tomoniga tutashtirib, uch nurli kompozitsiyali o'z shaharlarini barpo etganlar. Sobiq sovetlar davrida Samarqand shahrining bosh tarhi uch marta ishlab chiqildi: 1935 yilda arxitektor M. S. Bulatov tomonidan, 1968 yilda arxitektor T.N.Kalinovskaya muallifligida va 1981 yilda arxitektor A.M. Aleksandrovich rahbarligida. Biroq bu loyihalar, hayotdan ajralib qolgan shunchaki va'dalar ustiga qurilgan hujjat shaklida bo'lganligi tufayli, tulaligicha amalga oshmadi. Aksincha ayrim hollarda shahar strukturasi buzulishiga, olamshumul arxeologik va me'moriy obidalar muhitining buzulishiga olib keldi[25].

Samarqand shahriga xalk orzu qilgan haqiqiy e'tibor, arxeologik va me'moriy obidalarga jonkuyarlik, shahar qiyofasini zamonaviy shaharsozlik, hamda me'morlik andozalari asosida yangilash harakatlari, Mustaqillik sharofati bilan, uning arxitektori Birinchi prezidentimiz Islom Abduganievich Karimov rahnamoligida amalga oshirildi.

Samarqand me'moriy amaliyotining mustaqillik yillaridagi eng katta yutug'i sifatida, 2005 yilda uning bosh tarhi rivojlanish konsepsiyasining Vazirlar Matskamasi qoshidagi Respublika Arxitektura va shahar qurilishi kengashi tomonidan qabul qilinganligini kursatib utish joizdir. Bosh reja mualliflari arxitektor K. Akopjanyan mazkur loyihani ishlashda, tamoman yangi zamonaviy usul bilan yondashganlar. XX asr sovet shaharsozligida mavjud bo'lgan funksionalizm sarqitlaridan xalos bo'lganlar. Ilk bor shaharsozlikda noreal prognoz tufayli, katta xududni talon-taroj qilishga qaratilgan amaliyotdan voz kechilgan. Funksionalizm shaharsozligining mag'zini tashkil etadigan sanoat shaharlariga xos katta-katta zavod va fabrikalarni shahardan tashqarida joylashtirib (masalan, Samarqanddagi kimyogarlar shaharchasi), shunga moslab noqulay shaharni rejalashtirish g'oyasiga qarama-qarshi, imkoniyat boricha sug'oriladigan yerlarni talon-taroj qilmasdan shahar aholisi va hududini prognozlash g'oyasi quyilgan. Bush va tashlandiq yerlardan unumli foydalanish, shahar chekkasida bog'lardan yashil halqa tashkil etish, aholi yashash hududlarida urta va kichik biznes inshootlarini joylashtirish, hamda eng asosiysi MXD loyihalash, amaliyotida birinchi marta sayyohlik industriyasi shaharsozlik kadrlari omilini belgilash sirasiga kiritilgan. Mazkur bosh rejaning yutuqlaridan yana biri, 219 gektarni egallagan Afrosiyob qadimiy shahar xarobalari, haqiqiy arxeologik quriqxonaga aylantirildi. Bu kuhna qal'a ustidagi barcha tranzit transport yo'llari va begona inshootlar u yerdan olib chiqildi.

Shuningdek, Samarqand shahrining Temuriylar barpo etgan xududida qad kutargan «Yubiley» restorani, uch kavatli univermag, Kinoteatr binosi, «Tabassum» kafesi, hammom va kup qavatli zamonaviy uylarning shahar me'moriy xusnini buzib turishi haqida, so'nggi 30-40 yil ichida kupgina ilmiy

fikrlar bildirilgan edi. Mustatsillik sharofati bilan, hozirgi kunda shahar chiroyini buzib, transport va odamlar harakatiga halaqit berayotgan imoratlarning bir nechtasi olib tashlandi, me'moriy yodgorliklarni kuzatish nuqtalari ochilib, kichik chorchamanlar tashkil etildi[24].

Bu bunyodkorliklar davomi ularoq, bugungi kunda eski shaharda saqlanib qolgan ayrim Sobiq ittifoq davrida qurilgan binolarni rekonstruksiya qilish va milliylik tamoyillari asosida milliy me'morchiligimiz bilan uyg'unlashtirish muhim. Buning uchun ularning fasadlarini o'zgartirish yo'li bilan erishish mumkun.

Tarixiy rivojlangan eski shahar qismida qurilgan binolar asosan ular davlat muhofazasiga olinmaran, tarixiy ko'chalarda joylashgan, ularning fasadi bugungi kunda zamonaviy kurinishda tus olgan. Tomlari tekis emas, baland qilib ishlangan, balkonlari tunika panellar bilan ishlanganligi ayni payitda shaharni tarixiylik husnidan mosivo etmoqda. Masalan: Dahbet ko'chasidagi binolarni oladigan bo'lsak, bu ko'chada harakatlansangiz A.Temur maqbarasi ko'chaga dominant vazifasini bajadadi. Ko'cha yon tomonida esa bo'tkul boshqa zamonaviy manzara.

Bu holatni nima qilish kerak ? degan tabiiy savol to'g'iladi-buzib tashlash kerak; bu iqtisobiy, ijtimoiy zarar. Iqtisodiy tomondan yana yangi biholar qurish kerak, ijtimoiy tomondan bu yerda yashayotgan aholining istak hohishlari, ularni yangi turar-joylar bilan ta'minlash talab etiladi. Agar bu binolar fasabini rekonstruksiya qiladigan bo'lsak bu iqtisodiy va estetik foydali, iqtisodiy tomondan bir muncha tejankorlikka, fasadlarini qayta ishlash yo'li bilan erishish mumkin. Estetik foydali-bu shaharning go'zalligiga o'zining munosib hissasini qo'shadi va u yerda yashovchi aholining tarixiy muhitga bo'lgan munosabati yanada yuksaladi.

Dahbet ko'chasini modernizatsiyalashtirishda asosan mazkur ko'rsatmalarda tavsiya etilgan quyidagi asosiy ishlanmalar qullanilishi tavsiya etiladi:

I- madaniy meros ob'ektlari - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qiymatga ega bo'lgan yodgorlik, ansambl va diqqatga sazovor ob'ektlarni;

II- yodgorliklar - alohida inshoot va binolar, ushbu ob'ektlarga bevosita botiq bo'lgan rassomchilik, xaykaltaroshlik, amaliy-dekorativ san'at asarlari va tarixiy hududlar, memorial uylar, xonadonlar, nekropollar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, ilmiy ob'ektlari, etnografiya, epigrafika, kartografiya, antikvar va noyob naqshlar, shuningdek tarixiy, ilmiy, badiiy va boshqa madaniy qiymatga ega arxeologiya yodgorliklari;

III- ansambllar - tarixiy shakllangan xududda fortifikatsiya, diniy, saroy va qasr xususiyatiga ega, turar-joy, jamoat, ma'muriy, ishlab chikarish, ilmiy, uquv va boshqa maqsadlarda barpo etilgan va bir-biriga yaqin bo'lmagan yoki bir joyda jamlangan obida, bino va inshootlarning aniq chegaralangan hududlari;

IV- diqqatga sazovor ob'ektlar - tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qiymatga ega, shu jumladan xalq hunarmandchiligi shakllangan va mavjud bo'lgan tarixiy manzilgohlarning markazlari, yodgorliklar, buyuk tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bilan bog'lik; bo'lgan shaharsozlik obektlari va tabiiy landshaftlar, shuningdek madaniy qatlamlar, qadimgi shaharlar, qurgonlar, manzilgohlar, marosimlar o'tkaziladigan joylar; tarixiy manzilgohlar - xududida o'tmishda yaratilgan, tarixiy, estetik, ijtimoiy-madaniy, arxeologik, me'moriy yoki shaharsozlik nuqtai nazarida qiymatga ega va xalqning o'ziga xosligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasini saqlashda muhim ahamiyatga ega madaniy meros ob'ektlari joylashgan manzilgoxlarni inobatga olish [26,32].

2.3.Vatanimiz tajribalari hamda horijiy tajribalar

Mustaqillik yillarida Samarqand shahrining eski shahar qismini qayta tiklashda ulkan ishlar amalga oshirildi. Tarixiy qisimni buzib to'rgan bir necha binolar olib tashlandi, bular tarixiy qisimdagi zavot binosi, Registon maydoni yonidagi muzey binosi hamda Toshkent ko'chasidagi bir qator binolarning olib tashlanishi, ularning o'rniga bog'lar tashkil etilishi, hamda eski shahar qismida qoldirilgan sobiq ittifoq davrida qurilgan binolar fasadini yumshatish borasida bir qancha mazayka, sekrofetta ishlar olib borilishi buning yorqin misolidir.

Avvalambor, o'rta asrlarda shahar asosiy bo'g'inlarini tashkil etgan Registon, Amir Temur va Bibi Xonim ansambllarining atrof- muhiti qayta tiklandi. Ularning atrofida joylashgan tarixiy obidalar me'morchiligiga "begona" obektlar tozalandi. Bu bilan Registon, Amir Temur, Bibi Xonim va Shohi Zinda ansambllari g'oyaviy tarzda bir-biri bilan birlashtirildi. Ammo Amir Temur va Registon ansambllari oralig'ida joylashgan besh qavatli tipli turarjoy uylari ansambllarni bog'lashga xalaqit bermoqda Registon maydonining yaqinida joylashgan sobiq sho'rolar davrida muzey buzilib, o'rniga ko'kalamzor bog' barpo etildi. Bu muziy tarsi Registon madrasalariga o'xshatilib to'g'ri to'rtburchak va hovlili tarzda qurilgan edi. Ammo muzey hajmiy-fazoviy jihatdan madrasalardan mutloq farq qilar edi. Uning yir sathi va balandligi madrasalardan ancha baland bo'lib, ularni bosib qolganday tuyular edi. Shuning uchun bu muzey buzildi. Registon va Bibi Xonim ansambillarini bir-biri bilan bog'laydigan.

Toshkent ko'chasi 2008-2010 yillarda qayta tiklandi va rekonstruksiya qilindi. Bu ko'cha zamonaviy talablar, milliy me'morchiligimiz tamoyillari asosida qayta tiklandi. O'rta asrlarda savdo rastalari ko'chasi bo'lgan bu yirda, savdo do'konlari va ustaxonalar zamonaviy talqinda qayta tiklandi. Ko'cha boshida joylashgan mavjud ikki qavatli unvermag balandligi bir qavatga tushirildi. Ammo bu ko'chada qurilgan savdo binolari fasadi tarixiy ko'chaga

to'la mos keladi diyish bir muncha qiyin. Nega deganda bu binolarda keng qo'llanilgan zamonaviy matiriallar, oynavand binolar sabab bo'lmoqda.

Amir Temur ansambli atrofidagi sobiq sho'rolar davrida pala-partish qurilgan "Tabassum" kafesi, "Zangori ekiran" ustaxonasi, spert zavoti va boshqa binolar buzilib, o'rniga milliy me'morchilik an'analari asosida bog'lar yaratildi. Hududda mikroiklim yaratish uchun, favvoralar va suv havzalari joylashtirildi.

Tarixiy muhitdagi ko'chalarni tiklash bo'yich akatta amaliy ishlar qilingan. Samarqand tarixiy shahar hududidagi ko'cha va majmualar qayta tiklandi.

Shohi Zinda majmuasining qaytatiklanish jarayonidan keyin unda joylashgan ko'chalar ham ta'mirdan chiqdi, undagi ko'chalar kengaytirildi va majmua egallab turgan maydon obodonlashtirildi va tiklandi, Shohi Zinda ko'chasi rekonstruksiya qilinish vaqtida ko'cha ustidan VII-asrga mansub hammom chiqqan va hozirda bu hammom konsarvatsiya qilinib qo'yilgan.

2011-2012 yillarda Samarqand tarixiy hududida joylashgan Panjakent ko'chasini ta'mirlash ishlari olib borildi. Ko'chada tarixiy muhit obrazini yaratish hamda tashqi va ichki ko'chalarni tiklash maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, ko'chaning rejaviy kompazitsion loyixa takliflari ishlab chiqildi va loyixa amaliyotda qo'llanildi. Ko'cha panaramasidagi fasadlar o'ziga xos kompazitsion mutanosiblikda joylashgan bo'lib, undagi turar joylar peshtoqlari tarixiy, an'anaviy urf odatlarimizga mos keladigan kompazitsion ritmik mohiyatga ega. Panjakent ko'chasidagi mahalla markazlar, savdo rastalari, kichik mehmonxonalar va savdo do'konlari qayta tiklanildi va ularga an'anaviyligimizga xos obraz berildi. Jumladan; masjidlardagi yog'och ustunlar qayta restavratsiya qilindi va devorlari tozalanib ayrim joylariga g'isht ham terildi. Tarixiy merosimizni saqlangan holda ko'chaning mikroiklim sharoitini yaxshilash maqsadida suv ariqlari ham rekonstruksiya qilindi.

1996 yili Samarqand shahri tarixiy qismida joylashgan Ruhobod va Guri Amir maqbaralar atroflaridagi uylar buzilib maqbaralar yon atroflari

bog'larga aylantirildi va katta favvoralar o'rnatilib shahar mikroiklim sharoitini yaxshilashga katta e'tibor qaratildi . Undagi ichki ko'chalar ham to'liq ta'mirdan chiqarildi va turar joy hovlilari an'anaviy, o'zligimizga xos tabiiy materiallardan foydalanib ta'mirlandi.

-mazkur yodgorliklar va ko'chalarning qayta tiklanishi Samarqand me'morchilik san'atining qayta tiklanishiga xizmat qildi;

- majmualar va ko'chalarining tarixiy muhitini tiklanishiga olib keldi;

- an'anaviy dekorning tiklanishiga va tarixiy kompozitsion echimlarni va ularning o'zaro mutanosibligini qayta tiklanishiga olib keldi.

Shahar hududida tarixiy ko'cha muhitini qayta tiklash muammolariga mustaqillik yillarida katta e'tibor berildi. Bu ishlar ayniqsa, Samarqand shahrining 2750 yubileyi munosabati bilan 8 ta katta ko'chalarni tarixiy qayta ta'mirlanishi bilan boshlandi;

So'nggi yillarda Samarqand shahrida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan madaniy meros inshootlarini saqlash, ta'mirlash va obodonlashtirish bo'yicha katta ishlar olib borildi. Registon va Shohi Zinda majmualari, Amir Temur, Oqsaroy, Ruhobod, Xoja Doniyor, Bibixonim, Cho'ponota, Xoja Abdi Darun maqbaralari, Hazrati Xizr, Xo'ja Ahror, Shayxul Islom, yangi Xayrobod, Yominiy, Toshkandiy masjidleri, Qalandarxona darvozasi, Mirzo Ulug'bek muzeyi va rasadxonasi va boshqa ko'plab yodgorliklarida olib borilgan ulkan miqyosidagi ishlar buning yorqin dalilidir.

XIX asrda tez rivojlangan shaharlarning markazlarida ma'muriy binolardan tashqati, savdo markazlari ofes va banklarning binolari qurildi. Shu bilan birga shahar hududi kengayib, shahar markaziy hududlari zichlashadi. Ammo shaharlar markazida mahobatli binolar ansamblini tashkil etish an'anasi yo'qolmaydi. Bu binolar shahar qurilishida katta hajmlar, tashqi ko'rinishi va bezagi bilan keskin ajralib turar edi. Maydon va binolarning murakkab tuzilmalari va o'qli kompozitsiyasi keng qo'llangan edi. Masalan: XVII asrda Parij markazida qo'llangan uch nur tizimi kiyinchalik XIXasrda Vashington, Yangi Dehli va Kanberra shaharlarida keng qo'llanildi.

Ansamblozlikning rivojlangan ko'rinishini Ostona shahrining markazida ham ko'rish mumkun. Bu yirda asosiy piyodalar yo'lagi 2-3ta zamonaviy talablar asosida shakillangan ansamblni ko'rish mumkun. Bulardan biri Xon Shater savdo kungilochar kompleks atrofida shakillangan ansambl.

Bugungi kunda o'tmish me'morlari merosini va an'alarini puxta o'rgangan holda zamonaviy me'morchilikka tadbiiq etish har qachondan dolzarb hisoblanadi. Hozirgi kunda texnik va texnologik taraqqiyot me'morlarimiz oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalardan birinchisi hozirgi davrga mos zamonaviy talablar asosida turarjoy va jamoat binolari loyhalash, binolar ansambl va komplekslarni yaratish, undan tashqari sanoat bino va inshootlar kompleksini yaratish, yahlit uyg'unlikka erishishdan iborat. Ansambl va komplekslar yagona kompozetsiyaga birlashtirib, shahar yahlitligini ta'minlaydi. Shahar ma'lum qisimlaridagi turarjoy va jamoat binolari uning markazida tashkil etilgan jamoat ansambliga bo'ysunishi kerak. Bu ansambl o'z navbatida shahar markaziy jamoat ansambliga bo'ysunishi kerak.

Eron shahrining Isfahon shahridagi "Naqshi jahon" maydoni o'zining monimentalligi bilan ko;zni quvontiradi. Maydonda joylashgan Shoh masjidi, Lutfullo masjidi, Ali-Kapu saroyi, uning orqasida chorbog' hamda shaahar binolari va inshootlari shahar markazining yaxlit kompozetsiyasini tashkil etadi. Uning janubidan Zanderud daryosi qo'shilib ketadi. Shahar markazidagi juma masjidi va Gumbazi-Xoki ustunli galiriyalar bilanbir necha asrlar davomida shakillangan . Isfahon me'morchiligi, umumiy shaharsozligi, hajmmiy-rejaviy yechimidan tortib to binolar tarzigacha (fasadi), murakkab dekorativ moyolikasi va alohida detallari bilan o'zimizning me'morchiligimizni eslatadi. Bundan madaniyatimizning umumiyiligiga ishonch hosil qilsa bo'ladi.

Eronning Sheroz shahri baland-past rel'efda joylashgan bo'lib, eski kichchik ko'chalar bilan an'anaviy uylar saqlanib qolgan. Jamoat binolari pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, mayolika bilan bezatilgan. Bu yerda zamonaviy jamoat binolar an'anaviy milliy uslubda qurilib, asosiy ko'taruvchi konstruksiyalar sifatida zamonaviy materiallar beton, arnatura va boshqa

materiallar ishlatildi. Bu esa eski shahar tarixiy muhiti va obrazini saqlab qoladi. Ammo shaharda ansamblsozlik tamoyili kuzatilmaydi. Shaharning ma'lum joylarida dominantlar tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Beixtiyor o'zimizning an'anaviy me'morchiligimizni eslasak, sobiq sho'rolar davrida an'anaviy me'morchiligimizga qurilishni industrializatsiyalash natijasida bolta urildi. Eski shaharlarda ham ommaviy tipli binolar joylashtirildi bu esa shahar kompozitsiyasiga putur yetkazdi[21]. Endilikda bu muammoni bartaraf etish maqsadida bu binolarni ta'mirlash talab etiladi.

2 bob xulosasi.

Rus tizimining o'rnatilishi natijasida turarjoy binolari, savdo inshootlari, maktab, cherkov kabi bir qator fuqaro inshootlari bo'lgan fabrika, zavod, bank kabi yangi tipdagi binolar ham qurila boshlandi. Ularning qurilishida rus an'anaviy me'morchiligi shakllari bilan bir qatorda evropada taraqqiy etgan gotika, barokko va klasitsizm singari uslub belgilari nomoyon bo'ldi. Evropa me'moriy uslublariga mahalliy me'morchilik an'analari, qurilish materiallari, amaliy san'at namunalari ta'sir kursatib, an'anaviy me'morchilikka katta putur yetkazildi. Ular eski shahar muhitini inobatga olmasdan u yerda ham bu binolarni rurganlar. Mustaqillik sharofati bilan eski shahar qisimlari bu binolardan holi qilindi.

Samarqand shahrining tarixiy qismida bugungi kunda saqlanib qolgan Sobiq ittifoq davri binolari tipologiyasi asosan kup qavatli turarjoy binolari va jamoat binolarini (maktab, yotoqxona, kam qavatli va o'rta qavatli turar-joylar yani 5 qavatli binolar) tashkil etadi. Bu binolar qurilishi bugungi kunda shaharsozlikdagi eng katta xatoliklardir hisoblanadi.

Tarixiy rivojlangan eski shahar qismida qurilgan binolar asosan ular davlat muhofazasiga olinmaran, tarixiy ko'chalarda joylashgan, ularning fasadi bugungi kunda zamonaviy kurinishda tus olgan. Tomlari tekis emas, baland qilib ishlangan, balkonlari tunika panellar bilan ishlanganligi ayni payitda shaharni

tarixiylik husnidan mosivo etmoqda. Masalan: Dahbet ko'chasidagi binolarni oladigan bo'lsak, bu ko'chada harakatlansangiz A.Temur maqbarasi ko'chaga dominant vazifasini bajadadi. Ko'cha yon tomonida esa bo'tkul boshqa zamonaviy manzara.

Bu holatni nima qilish kerak ? degan tabiiy savol to'g'iladi-buzib tashlash kerak; bu iqtisobiy, ijtimoiy zarar. Iqtisodiy tomondan yana yangi biholar qurish kerak, ijtimoiy tomondan bu yerda yashayotgan aholining istak hohishlari, ularni yangi turar-joylar bilan ta'minlash talab etiladi. Agar bu binolar fasabini rekonstruksiya qiladigan bo'lsak bu iqtisodiy va estetik foydali, iqtisodiy tomondan bir muncha tejankorlikka, fasadlarini qayta ishlash yo'li bilan erishish mumkin.

2011-2012 yillarda Samarqand tarixiy hududida joylashgan Panjakent ko'chasini ta'mirlash ishlari olib borildi. Ko'chada tarixiy muhit obrazini yaratish hamda tashqi va ichki ko'chalarni tiklash maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, ko'chaning rejaviy kompazitsion loyiha takliflari ishlab chiqildi va loyiha amaliyotda qo'llanildi. Ko'cha panaramasidagi fasadlar o'ziga xos kompozitsion mutanosiblikda joylashgan bo'lib, undagi turar-joylar peshtoqlari tarixiy, an'anaviy urf odatlarimizga mos keladigan kompazitsion ritmik mohiyatga ega. Panjakent ko'chasidagi mahalla markazlar, savdo rastalari, kichik mehmonxonalar va savdo do'konlari qayta tiklanildi va ularga an'anaviyligimizga xos obraz berildi. Jumladan; masjidlardagi yog'och ustunlar qayta restavratsiya qilindi va devorlari tozalanib ayrim joylariga g'isht ham terildi. Tarixiy merosimizni saqlangan holda ko'chaning mikroiqlim sharoitini yaxshilash maqsadida suv ariqlari ham rekonstruksiya qilindi. Bugungi kunda ham bu ishlar davom etmoqda.

III-BOB. SAMARQAND SHAHRI TARIXIY QISMIDA QURILGAN ZAMONAVIY BINOLAR FASADLARINI ME'MORIY-BADIIY TASHKILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH

3.1. Samarqand shahrining tarixiy qismida qurilayotgan zamonaviy jamoat binolar va turarjoylar

Eski shahar qismida jamoat binolari va turarjoy qurilishining tashqi qiyofasiga shaharning kattaligi, uning xalq xo'jaligi soxasida, geografik joylashishining xususiyatlari, me'moriy yodgorliklarning mavjudligi, mavjud turarjoy binolarining holati va boshqalarga bog'lik holda turlicha talablar quyiladi. Shaharning markaziy qismlarida turarjoy qurilishining me'moriy-badiiy qiyofasiga shahar markazi arxitektura ansamblining umumiy shaharsozlik g'oyasi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Turarjoy qurilishining umumshahar jamoa va ma'muriy markazlari bilan birgalikda majmua tashkil etish usuli keng tarqalgan. Ayniqsa tarixiy shakllangan shaharlarning arxitektura yodgorliklari joylashgan qismlarida turarjoy muhiti va uning tashqi qiyofasini shakllantirish murakkab muammoga aylanadi. Tarixiy yodgorliklar joylashgan qismlarni ta'mirlashda me'moriy-badiiy tomondan yodgorliklar bilan o'zviy bog'langan turar-joy muhitini shakllantirish muammosi tug'iladi. Bunga misol kilib, Samarqand shahrimizning eski shahar qismida o'zgarishlarni olsak, bu erda majmualar yaxlitligi saqlangan xolda shahar badiiy qiyofasini atrof bilan bog'lash masalasi o'z yechimini topgan[28]. Bu an'anani rivojlantirish juda muhim bo'lib qolmoqda.

Arxitektorlar yangi binolarni loyhalashtirishar ekan, ko'pincha umumiy shaharsozlik g'oyasi bilan hisoblashmaganlar, ular mijozlarning talablari asosida

ish yuritadilar, ko'chaning kengligi tuzilishi, yaxlitligi va mujassamligiga xilof bo'lgan turli-tuman binolar qurilishi davom etmoqda.

Bunday misolni Samarqand shahri amaliyotida ham keltirish mumkin. U yirdagi Registon va Toshkent ko'chalarini qayta tiklash shahar tuzilmasida yagonalikni tiklash qaysidir ma'noda uning "yangi" va "eski" tumanlari o'rtasida tafovirlarni bartaraf etish uchun ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Samarqand shimoliy-sharqiy qismida joylashgan Toshkent va Registon ko'chalari umumshahar ahamiyatidagi shohroxl hisoblanadi.

Registon ko'chasi janubiy tuman va shahar markazini tashqi yo'llar- Katta o'zbek trakti va aeroport yo'li bilan tutashtiradi. Bu ko'chalarni qayta qurish ularda noyob arxitekturaviy yodgorliklar-Bibi Xonim masjidi va Registon madrassalari joylashganligi katta ma'suliyat talab qiladi[24]. Bu ko'chalarda qurilishi rejalashtirilayotgan binolarga ma'lum bir talablar qo'yish kerak. Albatda Samarqand me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish inspeksiya tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu to'la yitarli degani emas.

Avvalombor bu hududda yashayotgan insonlarning ongli munosabatini rivojlantirishimiz kerak, chunki bu hududlarda yashayotgan aholi tomonidan bunyod etilayotgan binolar milliy me'morchilikka mos qilib qurishni tushinishlari kerak. Binolarning fasadlarini o'zgartirish orqali bunga erishish mumkin, zamonaviylik, qulaylik bu juda yaxshi omillar ammo ularni tarixiy shahar binolarining ichki muhitida mujassamlashtirish tavsiya etiladi.

Tashqi tomondan bolaxonali, ayvonli, deraza va balkonlarga milliy panjaralar o'rnatish (joyiz bo'lsa), ustunlardan keng foydalanish, darvozalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Jamoat binolarida (mehmonxonalar, bazimgohlar) qurilishida tarixiy me'moriy obidalarimizdagi qo'llanilgan bezak elementlarini stellashtirilgan holda qo'llash tavsiya etiladi. Bulardan tashqari binolarning ranglariga ham katta e'tibor qaratish talab etiladi. Turli xil yorqin ranglardan foydalanmaslik kerak.

Tarixiy muhitga mos bo'lgan iliq va bir muncha tonlari past ranglardan foydalanish tafsifiya etiladi. Binolar qavatlariga ham katta e'tibor qaratish lozim chunki tarixiy qisimlarda qurilgan binolar bir va ikki qavatdan iborat bo'lgan, shuning uchun bu qisimlarda qurilishi rejalashtirilayotgan binolar ikki qavatdan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu fikrlarimiz bavomi sifatida Samarqand bosh rejasida ham bir qancha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Samarqand shahrining 2025-yilgacha bo'lgan bosh rejasini O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan "Toshkentboshreja" instituti (bosh arxitektor V.Akopjanyan, 2005-y.) ishlab chiqqan. Samarqand bosh rejasining o'ziga xosligi va murakkabligi shundan iboratki, u yirda jahon ahamiyatidagi noyob tarixiy-madaniy meros bilan bog'liq talablar va mintaqaning zamonaviy yirik ma'muriy-xo'jalik markazi faoliyatlari bilan bog'liq talablar e'tiborga olinishi zarur. Muammolarni hal etishni mualliflar shahar hududiy va miqdoriy o'sishini barqarorlashtirish zarurligida, shahar tarixiy qismini (Afrasiyob, "eski shahar", "yangi shahar") shaharsozlik faoliyati va tarh bo'yicha "oraliq" mintaqasining tarixiy negizini shakillantirishni alohida tartibga ega zonalar sifatida rejaviy ajratib ko'rsatishda deb biladilar. Loyhani ishlab chiqishda shahar turli qisimlarini yagona butunlikka jamlovchi reja sinchiga katta e'tibor berganlar.

Samarqand shahri rejasi konsepsiyasini ishlab chiqishda mualliflar quydagi qoidalardan kelib chiqqanlar.

-tarixan vujudga kelgan zonalarining rejaviy tuzilmasi shaharsozlik madaniyati hisoblanadi va moddiy madaniyat yobgorligi bilan bir qatorda muhofaza qilinadi;

-“ansambil muhofazasi” tushunchasi (ko'p xorijiy mamlakatlar misolida) uning tevarak-atrofini ham o'z ichiga oladi;

-tamirlash, qayta tiklash va zamonaviylashtirish chog'idan, shuningdek istiqomat, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash chog'ida an'anaviy turar-joy muhitiga aralashuv ehtimolligining yo'l qo'yilgan chegara va usullarini aniqlash;

-tarixiy zonalar hududiga muhofaza "oraliq" zonalarini tashkil etish;

-tarixiy zona ichkarisida transport ta'minoti usullarini aniqlash;

-tarixiy zonani muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlash.

Shahar rejaviy tuzilmasida loyha bo'yicha Markaziy rejaviy tuman ajratilib ko'rsatiladi-bu uzliksiz harakat loyihaviy shohroq halqasi doirasidagi hududdir. U shahar ma'muriy markazini, eski "Temuriy shahar"ning tutash mahallalarini, "Afrasiyob" qadimshunoslik majmuasini va ancha kiyingi davrga oid sidirg'asimon bir qavatli uylardan iborat mahallalarni o'z ichiga oladi. Bu zona rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari- tarixiy merosning madaniy ahamiyatini oshirish, uning yashash qobiliyatini ta'minlash, atrof-muhitni saqlash va qayta tiklash, naqliyot va ijtimoiy kengliklar, piyodalar zonlari, sayyohlik yo'llari tizimini rivojlantirish, hordiq faoliyatini rivojlantirish, hudud muhandislik jihozlarini yaxshilash.

Samarqand shahri bosh rejasini ishlab chiqish chogida mualliflar jamoasi vatan sayyohligi kabi iqtisodiy jihatdan foydali sohalardan biri sifatida xalqaro sayyohlikni rivojlantirishga alohida etibor qaratdi.

Sayyohlarni jalb etadigan obidalar va majmualar- Registon majmualari, Amir Temur masjiti va Bibi Xonim maqbarasi, Shohi Zinda majmui, Guri Amir maqbarasi, Oqsaroy, Ishratxona, shuningdek Xoja Abdi Berun, Xoja Abdi Dorun, Ruhobod va hakazolarni o'z ichiga oigan tarixiy markazidir. Shahar rejasida ular shaharsozlik kompozitsiyasining asosiy unsurlari sifatida qaraladi va tutash hududlarni qayta tiklash bo'yicha loyha yichimlari shularga bo'ysunadi.

Hozirgi kunda misolida ushbu masalani uta dolzarbligini inobatga olib, bir nechta fikirlarni keltirmoqchiman: Tarixiy shaharlarni an'anaviy strukturasini aniqlash, taraqqiyot omillarini urganish, rivojlanish loyihasini ishlab chiqish. Tarixiy shaharlarning inshootlarida foydalanilgan qurilish usullari bilan materiallarini arxeologik ma'lumotlar asosida kurib chiqish;

Qadimgi qurilish usullari va qurilish materiallarining bugungi tarixiy shaharlar qurilishi amaliyati bilan bog'lash; Ta'mirlangan inshootlarni saqlanishi va ulardan foydalanish.

Qadimiy, tarixiy shaharlarimizda tipovoy loyihalarni mahsuli bo'lgan zamonaviy inshootlar qurilishini va zerikarli arxitekturadan voz kechish, milliy qadriyatlarni tiklash, an'anaviy strukturani aniqlab, uning tarqqiyot omillarini urganib rivojl antirilsa, tarixiy shaharlarimizning o'ziga xos muhitini saqlab qolingan[24].

Vatanimiz Istiqlolga erishuvi va 25 yillik taraqqiyot davri davomida turli sohalarida kuplab yutuqlarni qo'lga kiritd. Hususan milliy an'ana va urf- odat, qadriyatlarimiz qayta tiklandi, aholining turmush darajasi yuqorilab bormokda. Me'morchilik sohasidagi an'analarimiz ham qayta tiklanib, zamonaviy me'morchilik bilan uyg'un ravishda olib borilmoqda. Buni shaharimiz qiyofasining sezilarli darajada o'zgarib borayotganligida kurish mumkin. Bugungi kunda shahrimizning kurkiga - kurk qushayotgan yangidan - yangi zamonaviy majmualar, maishiy xizmat kursatish ob'ektlari, savdo inshootlari, turarjoy uylari va boshqa ob'ektlarning kuplab qurilayotganligini shohidi bo'lib turibmiz. Bu esa kichik biznesni rivojlantirishga, aholining turmush darajasini kutarishga va yangidan - yangi ish o'rinlarining ochilishiga imkon beradi.

Bunday sharoitda uy-joy qurilishi va u bilan birgalikda rivojlanadigan infratuzilma-kommunal va ijtimoiy sektor, transport va kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy qurilish materiallari hamda konstruksiyalarini ishlab chiqarish, kapital va investitsiyalarini jalb etish, shuningdek, eng murakkab va jiddiy ijtimoiy masalalardan biri - aholi bandligi muammosini xal etishning g'oyat maqbul va samarali sohasi sifatida xizmat qila oladigan hamda xizmat qilishi lozim bo'lgan yunalishga aylanmoqda.

Shu o'rinda Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan "Oilaviy tadbirkorlik tugrisida"gi qonun qabul qiliiganini alohida ta'kidlash joiz. Bu qonun biznesning yangi turi -oilaviy biznesning tashkiliy- huquqiy shaklini belgilab berdi, ushbu turdagi faoliyatni davlat tomonidan rag'batlantirishni mustaxkamladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikning rivojlanishi, tadbirkorlar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib berish maqsad

va vazifalari me'morlar oldida xam kator vazifalarni quydi. Endi binolar qurilishida ham bu talablarni inobatga olgan holda tarixiy qisimda qurilayotgan binolarda ham qo'llash maqsadga muvofiq, ularning fasadlari ham shu talablarga moslashtirish tavsiya etiladi.

Samarqand shahrida mustakillik yillarida me'morchilik sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shahar asosiy magistral ko'chalari bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilinmoqda. Ko'chalar bo'ylab tadbirkorlar faoliyati uchun yangi savdo va maishiy xizmat kursatish ob'ektlari, bozorlar, savdo markazlari, turar-joy uylari va boshqa bino va inshootlar joylashtirildi. Mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga utish hamda tadbirkorlik va kichik biznesga e'tibor berilishi natijasida binolarning yangi turlari paydo bo'ldi. Bu binolarda savdo xizmat kursatish va turar-joy funksiyalarini birlashganligini kuzatish mumkin. Bu binolarning birinchi qavatida savdo dukonlari, maishiy xizmat uylari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa ob'ektlar joylashishi mumkin. Binoning ikkinchi qavatida tadbirkor va hunarmandlarning yashash xonalarining joylashuvi tadbirkorlarga qulaylik yaratadi.

Ma'lumki turar-joylar inson ijtimoiy hayoti ehtiyojlarini qondirib, davrlar osha rivojlanib, takomillashib kelaveradi. Bugungi kunda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish natijasida turar-joylarda yangi funksiyalarning kushilayotganligini kuzatilmokda. Yurtimizda azaldan milliy xunarmandchilik an'analari rivojlanib kelgan. Samarkand, Buxoro, Xorazm, Kashkadars, Fargona vodiysi va boshqa bir qator viloyatlarimizning xar birini o'ziga xos milliy hunarmandchilik an'analari mavjud: ulardan - kulolchilik, sandiqsozlik, tandirsozlik, yogoch uymakorligi, haykaltaroshlik, gilam tuqish, kasana tuqimachiligi, rassomchilik, zargarlik, zarduzlik, kashtachilik, tikuvchilik va boshqalar, ayniksa bugungi kunda ham davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy hayotning rivojlanishi va o'zgarishlari bilan me'morchilik ham rivojlanib, o'zgarib va boyitilib yangi qurinishlar kasb etadi. U har bir maskanning joylashuvi va mahalliy qurilish materiallariga bog'liq bo'lgan

holda ma'lum madaniyati, turmush tarzi va an'alarini o'zida namoyon etadi. Bugungi kunda dunyoning madaniy taraqqiyotida ma'lum o'rin tutib kelayotgan O'rta Osiyo me'morchiligiga qiziqish nihoyatda ortib bormoqda. Zamonaviy me'morchiligidimiz va shaharsozligimiz nafaqat sayyoxlarning etiborini jalb qilib qolmasdan, balki shu hududda yashayotgan xalqning zamonaviy talablari va ehtiyojlarini ham qondirishi kerak. Ammo mahalliy va xududiy madaniyatlar taraqqiyotiga e'tibor bermasdan turib, zamonaviy me'morchilik va shaharsozlik sohasini rivojlantirib bo'lmazligi aniqdir. Bu ayniqsa yangidan qurilayotgan turarjoy majmualari uchun benihoya zarurdir.

Respublikamizning tarixiy shakllangan shaharlarida ular tashqi qiyofasining o'ziga xosligi kam qavatli an'anaviy turar-joy binolarining nisbatan neytral fondida joylashgan me'morchilik yodgorliklarining mahobatli hajmlari bilan ifodalanadi. Tarixiy shaharlarimizning o'ziga xos bo'lgan tashqi qiyofasiga hozirgi kunda zamonaviy turar-joy binolaridan iborat yangi turar-joy tumanlari jadal sur'atlar bilan kirib kelmokda. Shu munosabat bilan tarixiy shaharlarimizning o'ziga xos tashqi qiyofasini saqlab qolish Respublikamiz shaharsozligining muhim muammolaridan biriga aylanmokda. Turar-joy muhitining estetik sifatlarini yaxshilashda turar-joy qurilishining ichki qismlarini me'moriy tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

Qurilishning industrial usullariga o'tish turar-joy binolari balandligi va uzunligining ortishi, turar-joy muhitining me'moriy qiyofasini shakllantirishdagi yangi bosqichni belgiladi. Turar-joy muhitining ichki qismlarini shakllantirishning vositalari va shart- sharoitlari o'zgardi[26].

Ko'p qavatli o'zun binolar turar-joy muhiti ichki o'lchamlarining kattalashishi va ularning odamlarga nisbatan nomutanosibligiga olib keldi. Turar-joy qurilishining mutanosibligi uning muhim sifatlaridan biri xisoblanadi. Zamonaviy turar-joy qurilishi ichki qismlarining odamlarga nisbatan mutanosibligini ta'minlovchi mahsus usullar mavjud bo'lib, ularga xajmiy fazoviy bir-biriga bog'lik, majmualarning shakllanishi kiradi. Bu

majmualar ochik, yarim ochik, yopik, xamda ushbu usullarning shakldagi aralashmasi sifatida bo'lishi mumkin. Hajmiy fazoviy majmualarni shakllantirishning keyingi bosqichida ularga turli xildagi kam qavatli hajmlar: kichik me'moriy shakllar, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishning boshqa unsurlari kiritiladi. Samarqand shahri tarixiy qismida turar-joy qurilishining odamlarga nisbatan mutanosibligini ta'minlash imkonini beradi.

Turar-joy qurilishlarida zichlik nisbatdan foydalaniladi. Bu borada aholiga xizmat ko'rsatish va savdo markazlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish ob'ektlari va aholining piyoda yo'llari, jamoat transportining to'xtash joylari bilan birga turarjoy qurilishini loyixalashtirishning asosiy me'moriy kompozitsiyasi hisoblanadi. Jamoat savdo markazlari va ko'p qavatli turar-joy binolariga nisbatan kompozitsion urg'u bo'lib xizmat qiladi. Hajmiy fazoviy majmualar piyodalar harakati jarayonida inson ongiga ta'sir etadi. Shuning uchun ko'chalar va turar-joy qurilishining kompozitsiyasi, aholining asosiy piyoda yo'llarida uzoqdan kurinishini ketma-ketligi ta'minlanadi va u inson qabul qila olish sharoitiga moslanadi. Shu bilan bir qatorda turar-joy qurilishini tashkil qilishda asosiy talablardan biri nisbatdir. Ko'cha va turar-joy qurilishida ichki makonni tashkil etishni, hajmiy fazoviy majmualar tizimi, ular qatoriga kam qavatli binolar, kichik me'moriy shakllar va obodonlashtirishning boshqa unsurlari aholini asosiy piyoda xarakatlanadigan yo'llarida perspektiva qurinishlarini turli ko'rinishlari, jamoat savdo markazlari, ko'p qavatli binolar bilan qiyoslanganda kompozitsion urg'ularni tashkil etishi va boshqalar[28].

Samarqand tarixiy shahardagi yangi qurilishlarda xam turar-joy binolari qurilishning ichki makonini tashkil etishda bir qancha kamchilik va qiyinchiliklar mavjud. Respublikamiz shaharlarida industrial uy qurilishiga o'tish yangi turar-joy qurilishi ichki qiyofasida xam bir kancha qizikarli jihatlar ko'rinadi. Uni anglashda bir xil bo'lgan zerikarli sifatlar

uchraydi. Asrlar mobaynida qoʻllanilgan milliylikni yuqotilganligi seziladi. Turar-joy qurilishlarini tashkil etishda ayniqsa, jamoat markazlarini koʻkalamzorlashtirish va obodonlashtirishni boshqa elementlarini xususiy avtobillarni saqlash joylarini hal qilinmaganligi, aholini oʻz-oʻzicha erkin xolda avtobillar uchun garajlar qurib olganligi kompleks qurilishni boʻzib kursatishga olib keladi. Ajdodlarimiz issiq iqlim sharoitlarida turar-joy qurilishini bunyod etish va bunyod etilgan uylarni shamollatishni turli tashkil etish, kuyosh radiatsiyasidan himoyalash uchun yuqori malakaga ega boʻlganlar.

Bu esa komplekslarni, majmualarning ommaviy qurilishini tashkil etgan. Xulosa qilib aytganda, yangi uslublarga oʻtishda turar-joy binolari milliy qurilishiga ijodiy yondoshilgan holda zamonaviy sharoitga moslashtirilib, badiiy gʻoyalarga toʻla loyixalarda oʻz aksini topsa nafaqat shaxrimizda balki Oʻzbekistonning boshqa shaharlarida ham milliy qurilishiga ijodiy yondoshgan holda, yangi uslublarga ham oʻtish lozim deb topilsa tugʻri boʻladi.

3.2.Qurilayotgan zamonaviy binolar fasadlarini meʼmoriy-badiiy tashkillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari

Tarixiy shahar koʻchalarining turar-joy qurilish, koʻchaning meʼmoriy-badiiy qiyofasining ikki tomonini, yaʼni shahar umumiy qiyofasini shakllantirishda ishtirok etuvchi tashqi qiyofasi hamda odamni bevosita oʻrab turgan ichki qiyofasini alohida koʻrsatish mumkin. Masalan: umumiy tashqi qiyofasi asosiy keng va tor koʻchalarga qaragan turar-joy binolari atrof bilan bogʻlangan boʻlishi kerak, chunki, bevosita oʻrab turgan ichki qiyofasida esa, inson uchun yaraltilgan barcha qulayliklar muhit bilan bogʻanishi koʻzda tutiladi[29]. Kuzatishlar shuni koʻrsatdiki, Samarqand shahrining tarixiy qismida oxirgi yillardagi zamonaviy materiallar bulmish alyukafond, gipsokarton, metall cherepitsa va boshqa materiallarning oʻrinsiz

ishlatilishi natijasida turli xildagi evrogotik uchli cherdak tomlar va minorasimon shakllarning paydo bo'lilishiga olib kelmoqda. Bu esa milliy me'morchiligimiz an'analariga ziddir. Shaharning me'moriy-badiiy kurinishini yaxshilashda turarjoy va madaniy- maishiy binolar qurilishi masalalarini sifatli yechish katta ahamiyatga egadir. Bu masalalarni yechishda mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, yangi turarjoy va jamoat binolarini qurish talab etiladi. Bu binolarni qurishda ularning fasadiga katta etibor qilish talab etiladi, chunki insonlarning tarixiy shaharni his etishlari uchun tashqi ko'rinish katta ahamiyatga ega.

Bu binolar fasadini milliy me'morchiligimizga mos tarzda tashkil etish lozim bo'ladi. Fasadlarda milliy me'morchiligimizda keng qo'llanilgan badiiy vositalardan keng foydalanish kerak. Shu yo'l bilan yangi binolarni milliy binolarimizga uyg'unlashtirishimiz mumkin, buning uchun mahalliy qurilish materiallaridan fodalangan holda binolar fasadida tom yopmalari tekis, dalkon, bolaxona, uyma naqishli barvozalar va panjaralarga, ustunlarni keng qo'llash orqali, milliylik ruhini berish kerak. Rempel L.I. tadqiqotlariga kura milliy me'morchiligimizda qo'llanilgan badiiy bezash vositalari keltirib utadi, "Girix" geometrik naqshi teng tomonli uchburchak, kvadrat va beshburchak geometrik shakllari asosida hosil bo'ladi. Bizga olti, sakkiz, o'n, o'n ikki, yigirma to'rt nurli girixlar ma'lum. Toq sonli nurli girixlar mavjud emas. Naqshning bunday turi ko'pincha shiftlarni bezashda kuzatiladi. Ularning devorlarda me'moriy chiziqlar tizimi tasvirlangan, ganjli shuvoq bilan kombinatsiyasi ko'p kuzatiladi. Bunday bezashda «kirma» zanjiri ganjli mozaykalarining mashhur usullari albatta qo'llanilgan. Bu shakllar naqshning bir elementi sifatida ham, kompozitsiyaning asosi sifatida ham uchrashi mumkin.

Yog'ochli yuzalar – daraxtlar, ustunlar, eshik va shiftlarning o'rganishda ularda yozuvli naqshlar borligi aniqlandi. Bunday naqshlar ularda shunday odatiy holga aylanganki, nozik uymakorlikning turi va naqshi emas, balki uning yo'qligi odamni ajablantiradi. Kam hollarda ular masjid fasadlari, minoralarda, ustunlarda qo'llanilgan. Bunday naqsh ikki hil tipda qadimiy burchakli arabcha

yozuvlar va yumaloq belgilar ko‘rinishida bo‘lgan. Yumaloq yozuvlardan ko‘pincha ayvonlar ustunini bezashda foydalanilgan. Eshiklarni bezashda ikkala usul ham qo‘llanilgan. Yog‘ochli detellarni o‘rganishda, muallif tasviriy san’at nuqtai nazaridan, dereza panjaralarining muhim ahamiyatini ta’kidlaydi. SHishalar tarqalishidan oldin, derazalar eshik yuzalari, ventilyasiya shaxtalari, bino fasadlarida panjaralar keng qo‘llanilgan. Naqsh rasmlariga ko‘ra ularning ikki turi tasniflanadi: o‘simlik va geometrik xarakterli. Bunday panjaralar elim va mixlarsiz shunday mohir ishlanganki, o‘zbek ustalarining shunday katta texnik va badiiy fantaziyasiga tasannolar deging keladi[30].

Bu degani milliy me’morchiligimizga tula qaytish uni takrorlash degani emas, albatda ulardan ma’lum bir yunalishlar olish, ulardagi elementlarni stillashtirib zamonaviylikda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shunday kup quriladigan turarjoy, jamoat binolari va madaniy-maishiy xizmatxonalarni o‘z ichiga qamrab olgan ustaxonali - individual turarjoylar bo‘lishi mumkin. Bu binolarda tadbirkorlar xususiy ishlab chiqarish yoki ijodiy faoliyat olib borishi mumkin. Horzirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday binolar fuqarolar va tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari va banklarning imtiyozli kreditlari hisobidan qurilmoqda va xar bir tadbirkorning individualligini aks etadi. Tarixiy shaharlar me’moriy- badiiy qiyofsi turli xildagi ijtimoiy-iqtisodiy va me’moriy shaharsozlik vazifalarini yechish bilan shakllanadi. Bu vazifalarni yechishda tabiiy-iqlimiy, me’moriy-shaharsozlik shart-sharoitlarni, xalqning milliy urf-odatlarini, vataning me’moriy an’analarini hisobga olish zarur.

Turar-joy qurilishining tashqi qiyofasini shakllantirishda jamoat markazlari, asosiy yullar, turar-joy majmualariga kirish joylari hamda xududlarning landshaft xususiyatlarini ifodali ko‘rsatish imkonini beradigan baland binolar urg‘usini joylashtirishi muhim ahamiyatga egadir. Muammolarni hal etishda estetik jihatlariga e’tibor berish, yaxlitlik saklangan xolda shahar badiiy qiyofasiga o‘zgarishlar kiritilmoqda[26]. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, Istiqlolning bizga bergan eng buyuk imkoniyatlaridan biri - bu o‘z yurtimizga, vatanimizga egalik qilish, uni obod

etish, qurish, yaratish, bu sohada ajdodlarimiz erishgan ulkan yutuklar o'rganib, ular erishgan yuksakliklarga biz ham yetib olish va rivojlantirish uchun bunyodkorlik, hususan me'morchilik va shaharsozlik bobida ham buyuk ishlar qilish imkoniyatining yaratilganligidir. Ha, ana shunday imkoniyatlar bugungi kunda nafaqat Samarqand shahrida, balki viloyatlar markazlari, tarixiy shaharlarida ham mavjuddir. Faqat biz mazkur imkoniyatlarni to'g'ri yo'naltirishimiz, bu sohalarga sarflanayotgan mablag' va kuchlarimizni eng samarali, eng istiqbolli asosda tashkil etishimiz, ilg'or me'morchilik va qurilish usullari va shakllarini izlab topmog'imiz va ularni amalda qo'llashimiz zarur.

Samarqand shaharlari arxitekturasining taraqqiyoti va istiqboldagi kelajagi uchun bu sohada bugungacha bajarilgan ishlar tahlil qilinishi, umumlashtirilishi va tegishli xulosalar chiqarilishi kerak. Mustaqillik yillariga hali ko'p vaqt bo'lmasada, bu davrda erishilgan yutuqlar, me'morchilik san'atining ilg'or yo'nalishlariva yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanishi, tahlil qilinmog'i va xolisona baholanmog'i zarur. To'g'ri, bu qisqa vaqt ichida arxitekturada favquloddagi ilg'or yo'nalishlar va badiiy uslublarning shakllanib ulgurishi qiyin. Biroq, bu davrda bunday yo'nalish va an'analarning tamal toshi qo'yilgan va ularning ilmiy asoslanishi, tahlil qilinishi hamda o'rganilishi uchun etarlicha dalillar yig'ilgan bo'lish kerak.

Me'morchilik san'at turlaridan biri sifatida badiiy ifodaga ega. Tasviriy san'at, musiqa, teatr kabi san'at turlaridan farqli o'laroq me'morchilik kishilik hayotida uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun kishilik jamiyatining moddiy va ma'naviy taraqqiy yetib borishi sababli me'morchilik ham unga muvofiq ravishda rivojlanib, o'zgarib boradi. Har bir davrning o'ziga xos moddiy va ma'naviy ehtiyoj hamda imkoniyatlari o'sha davr me'morchiligida aks etadi. Bu o'zgarishlar ko'pincha uzviy davom etadi. Biroq, utmishda reforma yoki boshqa sabablar tufayli me'morchilik taraqqiyoti keskin o'zgarishlar vositasida ham amalga oshishi mumkin. Badiiy ijodda san'atning har bir davr moddiy va ma'naviy ehtiyoj hamda imkoniyatlarini mana shunday o'zida aks ettirish xususiyati uslub deb ataladi.

Tarixiy taraqqiyot tufayli o'tmishda yaratilgan ba'zi badiiy vositalar yangilariga almashina boradi va natijada eskilari unutila boradi.

Biroq, ko'pgina me'morchilik va shaharsozlik asarlari o'zining tarixiy, badiiy yoki boshqa bir ahamiyati tufayli ajdodlardan - avlodlarga o'tib keladi. U muhofaza qilinadi, tarixiy jarayon tufayli jismoniy holati va badiiy qiyofasini yaxshilash zaruriyati paydo bo'ladi. Mana shu ishlarni me'moriy ta'mir va qayta tiklash faoliyati amalga oshiradi. Biroq, muhitni qayta tiklash har bir davr va mintaqada yuksak bilimga asoslangan individual yondashuvni talab qiladi.

Bunda biz muhitni saqlash uchun binolar fasadini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish kerakligini va yangi qurilishlarda ham aynan fasadlarni milliy an'analar asosida rivojlantirib borish talab etiladi.

Eski shaharning kam qavatli yashash jamg'armasi an'anaviy turini rakonstruksiya, qayta tiklash va modernizatsiya qilish, zamonaviy tus berishga bu yashash jamg'armasining arxitektura-badiiy, funksional-texnik tarixiy-madaniy qimmatini haqidagi ma'lumotlarni xisobga olgan prinsip-qoidalarini o'rnatish kerak. Tarixiy va madaniy yodgorliklar hamda ularni o'rab turgan muhitning yaxlitligini, eski shahar muhitida ko'chani tarixan shakllangan tizimning orientatsiyasi-turgan joyini aniqlash, zamonaviy imoratlarning tarixiy yadrosidan ajralib qolgan aloxida yodgorliklarga olib boruvchi ko'cha va unga orientir-turgan joyni bildiruvchi belgi moslamasi rekonsgruksiyasi-qayta tiklash yo'li bilan ta'minlanish zarur.

Eski va yangi binolarni, ayniqsa ularning umumiy siluet ko'rinishini shakllantirishda bir-biriga uygunlashtirish uchun arxitektura shakllari dissonansi-nosozligiga yo'l qo'ymaslik va maxsus ilmiy-loyihalash ishlarini tartibga solish zarur. Muhofaza mintaqalarini urnatish zarur bunda differensiallangan hisoblangan shaharsozlik talablari aloxida rekonstruksiyaga ega hududlarga, baland yangi imoratlar ko'rilishi cheklanishini qo'shgan holda qo'yiladi.

Tarixiy mintaqalarni qayta tiklash loyixalarida albatta shaharning xujalik hisobi iqtisodining shaklaridan biri sifatida yashash va jamoat

binolarini eski jamg'armasidan, alohida arxitektura yodgorliklaridan mehmonxona, servis-xizmat ob'ktlari uchun muvofiqlashtirish, shuningdek, mahaliy aholini savdo-hunarmandchilik borasiga jalb etishday turizm-sayohatchilikning taraqqiyotiga diqqatni qaratish zarur.

Me'moriy ansamblar joylashgan ko'chalar strukturasi, tarixiy ko'chani aks etib ayvonlar, lojiyalar, peshtoklar, uymakorlik bilan ishlangan yog'och stunlar ko'chani ulugvor tarixini kursatadi. Registon ansambli, Bibixonim masjiti Shoxi Zinda ansabli, Guri Amir maqbarasi kabi individual inshoot kompozitsiyalar, shaharni vertikal silueti hisoblanib, ular nafakat mahalla xatto shaharni dominanti desak ham xato bo'lmaydi. Shuni aytib utish joyzki tarixiy qismlarda joylashgan aholi kvartallar, hamda shaharni tarixiy qismida joylashgan turar joylar, ko'chalar kompozitsiyasi, me'moriy ansamblar joylashgan ko'chalarning kurkam muhitini ta'minlaydi.

Tadqiqot vazifalari ilmiy izlanishni maqsadida ko'rsatilgan muammoni yechishga qaratilgan bo'lib, quyidagilardan iborat:

- an'anaviy turar joylar me'moriy- rejaviy yechimining o'ziga xos jihatlarini o'rganish va tadqiq talab etiladi;
- an'anaviy turar joylar va jamoat binolari tizimining hajmiy-fazoviy echimini o'rganish, amalitot bilan bog'lash;
- an'anaviy turar joylar va jamoat binolari fasadlarini pardoqlash usullarini ishlab chiqish;
- an'anaviy turar joylar qurilishida asosiy qurilish materiallarini o'rganish va turlarini aniqlash; an'anaviy turar joylarda interer va ekstererdagi devor, ayvon va shiftlarni naqshu-nigorlar bilan badiiy bezash yo'llarini tadqiq etish;
- turar joyda tarz elementlari, interer, eksterer, hovli tizimi va ko'cha muhitini badiiy bezatish echimlari inobatga olish;

Tarixiy me'moriy muhitni qayta tiklash, etibordan chetda qolgan yodgorliklarni zamonaviy maqsadlarda ishlatish, an'anaviy turar-joy muhitini regeniratsiya qilish kabi muammolar bugungi kunda Samarqand shaharining tarixiy hududi oldida turgan eng dolzrb muammolardan biri hisoblanadi.

Tarixiy shaharlarni muhofaza qilish xalqaro xartiyasida shunday deyilgan: “Tarixiy shaharlar va kvartallarni himoya qilish, avvalambor, u yerda yashovchi aholiga tegishli ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak”. Shunday ekan, bugunga qadar Respublikamiz olimlari tomonidan tarixiy shaharlarimizning me’moriy yodgorliklarini saqlash va qayta tiklash, zamonaviy maqsadlarda foydalanish uslub va tamoyillari keng ko‘lamda ishlab chiqilgan. Lekin, tarixiy shaharlarning eski shahar hududida yashovchi aholining kelajakda qaerda, qay tarzda va qanday me’moriy muhitda yashashi O‘zbekiston me’morchiligida kam o‘rganilgan soha hisoblanadi. Shunday ekan, tarixiy shaharlar hududini muhofaza qilishda avvalambor, turar joy muhitini saqlash, ta’mirlash, qayta tiklash, “jonlantirish” zarur. Toki eski shaharlarda yashovchi aholi o‘z milliyligini, qadriyatlarini saqlagan holda zamonaviy hayot bilan hamnafas yashasin.

3.3. Samarqand shahrining tarixiy qismida me’moriy muhit qiyofasining shakllanishi yo‘llari

Tarixiy shaharlarni muhofaza qilish haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, eski shaharlarning me’moriy muhitini qayta tiklash masalasiga e’tibor qaratishimiz zarur. Har qanday muhit bizga ma’lumki, unda yashovchilar tomonidan qabul qilinishidan tashqari, jadal sur’atda yaratiladi ham. Inson atrofdagi muhitdan faqat o‘zining ichki talablari va intellektiga mos keladigan elementlarni tanlab oladi. O‘zi yashovchi jarayonda atrofdagi turli xil fragmentlarni integratsiya qilib, o‘z atrofida butun muhit hosil qiladi. Tabiiyki, bir xil zerikarli manzaralarga qaraganda, murakkab, har xil boy manzaralardan muhitni yaratish imkoniyati ko‘proq. Boy manzaralar asosida turli xil kontrast va o‘zaro kesishgan muhitlar — ko‘p qirrali va hayotiy jarayonlar kesishadigan qatlamni hosil qiladi.

Bunday murakkab muhitni, masalan, eski shaharlar markazida kuzatsa bo‘ladi. Bu kabi “bir hududa bir necha xilma-xil muhitlar”ni uyg‘unlashishini

hech bir loyiha amaliyotida qayta bunyod etib bo'lmaydi. Shuning uchun "muhitni himoya qilish muammosi" nafaqat suv, havo va hayvonot dunyosiga, balki, inson uchun muhim bo'lgan va qayta qurilmaydigan, tarixiy ahamiyatga ega eski shaharlarga ham tegishlidir.

Insonlarning yashash muhiti bu- rivojlanuvchi tizim sifatida aniqlanadi. Evolyusion rivojlanish jarayoni tushunchasi rivojlanayotgan ob'ektda yashiringan va jarayonni harakatlantiruvchi tabiiy qarshilikni anglashni talab qiladi. Dinamik ob'ektga maqsadga muvofiq yo'nalishda ta'sir qilish uchun, loyihalashtirish ob'ektning qarshiliklariga teskari burilmasdan, ulardan foydalana bilish kerak. Masalan, eski shahar markazlarining zamonaviy funksiyalari uning an'anaviy muhitdagi strukturasiga nomutanosibliigi haqida ko'p gapiriladi. Bugun esa bu muhitda qurilgan binolarni butko'l buzib bo'lmaydi, buning uchun bu hududlarda yashayotgan aholini ma'lum bir vaqt bir joyga ko'chirish, turarjoylar bilan ta'minlash zarur bo'ladi. Bu uzoq va ijtimoiy, iqtisodiy tomondan bir muncha og'ir masalalarni keltirib chiqaradi, bu muammoga boshqacha yondashsa ham bo'ladi.

Bunda binolarni rejaviy tuzilmasi saqlangan holda, ularning faqalgina fasadlarini milliy me'morchiligimizga mos holda tamirlash va yangilarini tashkil etish orqali erishish mumkun. Bu muammo yichimi uchun ma'lum bir yo'ldir. Vaholanki, bunday yechim binolarni butko'l qayta qurish loyihaga qaraganda iqtisodiy samarali. Xuddi shunday loyiha takliflar (mavjud holatni inobatga olmaydigan) shaharning mavjud holati bilan uyg'unlashmasligi eski shaharlar muhitida haqiqiy "falokat"ni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, loyihalashtirish rivojlanuvchi ob'ektda hosil bo'ladigan "falokat"larni boshqarishni o'rganishi kerak. Xususan, ichki qarama qarshilikni optimal holatda ishlab turishini, unga yo'l qo'yiladigan darajadan yuqoriga ko'tarilmasligini (aks holda mavjud tizim buzilib ketishi mumkin) va eng pastki darajadan tushib ketmasligini (bu holda jarayon harakatsizlikka kelib qolishi mumkin) boshqarishi kerak. Ehtimol, loyihalashtirish amaliyoti muhitdagi ob'ektlarning o'zida qarama - qarshilik hosil qila bilish kerak, qandaydir maxsus

vositalar bilan uni ko'rsata olishi kerak. Lekin, hozircha loyihalashtirish faqat loyihalar bilan ishlaydi. U loyihalar orasida real qarama-qarshilikni hosil qilishi mumkin. Lekin bu mavjud holatni modellashtirishning juda qo'pol ko'rinishi.

Loyihalar tanlovi - loyiha va g'oyalar "kurashi" bizga yaxshi ma'lum bo'lgan modellashtirish usuli. Bu usul ayniqsa mas'uliyat bilan yondashish kerak bo'lgan, murakkab hududlarni loyihalashda ishlatiladi. Bundan tashqari ko'p variantli loyihalashtirish usuli ham bor. Bu usulda bir g'oyaning o'zi turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Har qanday yaratilayotgan muhit loyihasi birgina soha nuqtai nazari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Hozirgi kunda "muhit" muammosiga tegishli ilgor ishlanmalarda turli xil soha vakillarining qatnashishi ko'zda tutiladi. Tarixchi, sotsiolog, arxeolog, geograf, ekolog va arxitektorlar inson atrofida "yashashmuhiti"ni tashkillashtirish uchun izlanishlarda bevosita qatnashadilar. Lekin kelajakda bu soha vakillari doirasini yanada kengaytirish zarur. Chunki har bir soha muhitga o'zining ta'sir nuqtasidan qaraydi. Qadimiy shaharlar markazlari muammosi shaharlarning o'ziday eski muammolar. Lekin bugungi kunda shaharlarning tez sur'atlarda o'sib borishi tufayli bu muammo ayniqsa o'tkir tus oldi. Tarixiy shaharlarning markazlaridagi hududlar - jamiyatning asosiy boyliklaridan biri. Shuning uchun atrof muhitni "ko'tarib turuvchi sinch" kabi moddiy shaklda ifodalangan bu madaniy merosni saqlab qolishga bo'lgan harakat tabiiy. Lekin biz an'anaviy shahar markazi bizga qanchalik qadrli ekanligini uning atrofida "begona" inshootlar qurilganidan keyin tushundik. Tarixiy shahar strukturasi degredatsiyaga olib kelayotgan, mavjud muhitni deformatsiyalayotgan stixiyali ravishda shakllangan hajmiy - fazoviy muhit paydo bo'lganidan keyin, biz tarixiy muhitni yo'qotayotganimizni tushundik.

Bu yerda biz yangicha ko'rinishda ifodalanayotgan yana bir muammoga yaqinlashamiz, bu - loyihachining shaxsini rivojlantirish muammosi. Loyihalash uslubini o'zgartirish, informatsion texnologiyalar yordamida turli xil takliflarni qabul qilish, loyihachini modellapgtirish vositasida mavjud muhitga qarama-qarshi qo'yadi. Nafaqat tashqi, balki, ichki dialogni shakllantirish, bir predmetni

turli xil ma'noli rakurslarda ko'ra bilish - bularning hammasi loyihalash san'atiga kiradi va murakkab, nozik "muhitdagi ob'ekt"lar bilan ishlovchi loyihachi qobiliyatini oshiradi. XX asrning buyuk arxitektorlaridan biri o'z kasbdoshlariga: "Siz faqat o'zingiz emas, balki hammaning o'rnida ham bo'lib bilishingiz kerak" - deb bejiz aytmagan.

Respublikada bu borada aniq, strategik chora-tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda, shu bilan birga eski shaharlarning ochiq muhit va maydonlarida olib borilayotgan islohatlarvda an'anaviy turar joylarning arxitektura muhiti milliy qadriyatlardan yiroqlashgan tendensiyalarga moslashayapti.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, jamiyatdagi boshqa soxalar kabi tarixiy shaharlarning an'anaviy turar joy muhitini tadqiq etish soxasida ham milliy qadriyatlarni qayta tiklash, ularni o'rganish, aniqlash, tarixiy an'analarimizni hayotga tadbiq qilish, ularni zamonaviy jahon tajribalari bilan muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar qo'yilmoqsa.

Mazkur tadqiqot mavzusi Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning ustuvoryo'nalishlarga mos keladi. Jumladan, u Respublikamizda qabul qilingan ustuvor ilmiy-tadqiqot ishlari davlat dasturiga kirgan "Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilishi, aholi yashash joylarining samarali me'moriy-loyihaviy yechimlari" yo'nalishiga mos keladi.

Mazkur masala bo'yicha turli davrlarda O'zbekistonda nashr etilgan rus va o'zbek tillarida qator ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar mavjudki, ularning mualliflari tarzida M.K.Axmedov., SH.D.Askarov, T.F.Kodirova., V.I.Kurennoy, I.I.Notkin, Nozilov.D.A., K.D.Raximov, Salimov.O., V.Slominskiy, V.G.Saakov, A.S.Urolov, V.M. Filimonov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan olimlar an'anaviy turar joy tarixi, xususan, Samarqand shahari me'morchiligi va shaharsozligi tarixi, tarixiy shaharlarning me'moriy muhiti urganilgan. Lekin, bugungi kunda O'zbekistonda tarixiy shaharlarning turar joy muhitini regeneratsiya qilish masalalariga doir

ma'lumotlar etarli emas. Biz o'rganayotgan ilmiy-tadqiqot ishi, tarixiy shaharlarning an'anaviy turar- joy muhitini regeniratsiya qilishga bag'ishlangan.

Samarqand shahrining tarixiy hududida an'anaviy turar- joylar muhitini o'rganib, tadqiq etish hamda zamonaviy muhandislik uslublari va madaniy servis sharoitlarini inobatga olgan holda, ularning tarixiy- madaniy qadriyatlari va me'moriy muhitini regeniratsiya qilish ijodiy guruhimizning oldigi qo'ygan birinchi va asosiy maqsadi hisoblanadi.

- an'anaviy turar joy muhitini modernizatsiya qilish instrumental tizimi tarixiy-madaniy qadriyatlarni regeniratsiya qilishga imkon yaratadi hamda go'zal estetik va qulay me'moriy muhitni tashkillashtirish bo'yicha muhandislik tarmoqlari masalalari ilk bor tadqiq etadi;

- regeniratsiya qilish modeli ko'rinishida taklif qilinayotgan ushbu konsepsiyaning uslubi shahar ma'muriyati tomonidan me'moriy- shaharsozlik soxasida loyihaviy amaliyotda hamda O'zbekistonning tarixiy shaharlarida yangi loyihalar taklifida va tarixiy hududlarni rekonstruksiyasini rivojlantirishni analiz qilishda ishlatilishi mumkin;

tadqiqot ishida ko'rsatiladigan takliflar milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, samarali loyihalarni ishlab chiqishda asos bo'ladi. Bu esa eski shahar hududida yashovchi xususiy uy egalariga zamonaviy yashash sharoitlari va "ochiq osmon ostidagi muzey" ko'rinishidagi qo'riqsona sifatida qiziqarli chet el mehmonlariga xizmat ko'satish orqali har tomonlama qulay imkoniyat yaratadi;

- tadqiqotdan olingan natijalar ko'rilayotgan muhitning modelini va ushbu muhit uchun dasturiy ta'minotning ma'lumotlar bazasini yaratishda yakuniy material bo'lib xizmat qiladi. Algoritmning matematik modeli tarixiy-me'moriy an'analarni inobatga olgan holda regeniratsiya masalarini echishga imkon yaratadi va tarixiy shaharlarning keyingi rejaviystrukturasini inobatga olgan holda shaharsozlik strukturasini rivojlanishini ta'minlaydi.

Samarqand tarixiy va madaniy yodgorliklarni shaharsozlikdagi muhofazasi arxitektura va madaniy qimmatga ega bino va inshootlarni

restavratsiya - kayta ta'mirlash buyicha, mavjud imoratlarni modernizatsiya-zamonaviy yondashib, butunlay ta'mirdan chiqarish, yangi qurilishga, hududlarning obodan bo'lishi uchun hamda yer osti kengligidan foydalanish, tarixiy shaharda yashashga qulay sharoit yaratish uchun va arxitektura sohasida yanada ma'naviy, moddiy tomondan to'la foydalanish hamda bor imkoniyatlardan foydalanib, saqlash uchun bir-biriga bog'liq ishlarni amalga oshirish yo'llari bilan hal qilinishi kerak.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash tarixiy va madaniy yodgorliklardan foydalanish va muxofaza qilish haqidagi amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni shaharsozlikdagi muxofazasi (shahar- qo'riqxonalar, tarixiy ansambllar, landshaft komplekslari. arxitektura yodgorliklari, xalq me'morchiligi, etnografiya, ko'milgan arxeologiya yodgorliklari) barcha hududiy boskichlarda (chegaradosh miktaqa, aglomeratsiya, shahar va qishloq joylari, yashash joylaridan ajralib qolgan, aloxida turgan erlar), arxitektura-shaharsozlikni loyihalashtirishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi esa madaniy merosni tiklashning uzoq muddatli merosiy dasturini hal qilish kerak.

Tarixiy-shakllangan shaharlarni kompleks qayta tiklashda bu mintaqalarda yashovchi aholining manfaatlarini, ularning milliy madaniyatning ma'naviy va moddiy qadriyatyaarni saqlash hamda taraqqiy ettirishga bo'lgan intilishlarini aks ettiruvchi tarixiy mintaqalarning ijtimoiy islohati dasturini ishlab chiqish zarurdir[29].

Tarixiy-madaniy ahamiyatga ega kichik shaharlar va qishloq joylarini qayta tiklashda, bu joylarning asrlar mobaynida ular intilib kelgan markaz bilan aloqalarini, bu borada kasabalarining tarixiy toposnimikasini aniqlagan hamda ularning kommunikatsion karkaslarini birlashtirganini muayyan shaklga keltirgan holda aslini tiklamoq zarur[26].

Ko'p qatlamli shaharsozlik tarixiy mintaqalari madaniyati, o'z ichiga antik davrning o'rta asrlarning, mustamlakachilik davrlarining arxitektura

hamda shaharsozlik san'atini o'z ichiga oladi va har bir xalqning tarixiy-madaniy mulki, uning o'ziga xosligi manbai hisoblanadi. Har bir shaharsozlik qatlamining chegaralarini ajratib kursatish hamda chegaralarini chizib kursatish, uning rejalashtirish va stilistik o'ziga xosliklarini qayd qilish zarur.

Samarqand tarixiy shahar ko'chalarda obod hududlaridan yashil daraxtzorlarni loyixalashtirish shahar ko'chalarini rejalashtirish va qurilish loyixalarini butun me'moriy-rejaviy muxandislik masalalarini kompleks hal qilish bir paytda, obod hududlardan tashqaridagi va shahar ko'chalari atrofidagi zonalarini ham ko'kalamzorlashtirish masalalari hal qilish bilan qushgan holda amalga oshirilishi lozim [31].

An'anaviy shahar muhiti saklangan xolda maxalliy axolining yashash muhitini yaxshilagan xolda shahar strukturasini uzgartirmasligi kerak.

An'anaviy ochik maydonlarni uzgartirish, ya'ni ko'chalarni kengaytirish xamda yangi binolar qurishga ruxsat berilmaydi. Mahalla markazlari o'zining avvalgi ko'rinishini saklagan xolda jamoat markazlari vazifasini bajaradi

Tarixiy shaharlar markazlarining istiqboldagi rivoji va ulardagi madaniy merosni saqlashning asosiy usullari, bir tomondan yodgorliklarga ularning tarixiy-arxeologik, me'moriy-badiiy hamda shaharsozlik qiymati bilan, boshqa tomondan – turizmni rivojlantirishdagi zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bunda tarixiy shaharlarning uch asosiy toifasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yaxshi saqlangan me'moriy-tarixiy tuzilishi, qulay tabiiy iqlimli, kam rivojlangan iqtisodiy bazali, biroq shaharsozlik yodgorliklari sifatida saqlanishi zarur bo'lgan, qimmatbaho madaniyat yodgorliklariga ega tarixiy shaharlar, dam olish va sayyohlik uchun rivojlantiriluvchi qo'riqxona-shaharlar;

- qadimiy o'zagi, ya'ni tarixiy tuzilishini saqlagan, ammo muhim iqtisodiy imkoniyatga ega ma'muriy-madaniy, sanoat va transport

ahamiyatidagi ko'p vazifali markaz sifatida rivojlanuvchi, qimmatbaho yodgorliklarga ega tarixiy shaharlar;

- rekonstruksiyalangan va tarixan shakllangan qismlarni yangilash, qimmatli yodgorliklarni saqlash va qulay tomosha qilish uchun muayyan sharoit yaratish bilan faol rivojlanishdagi, tarix va madaniyat yodgorliklariga ega tarixiy shaharlar.

Tarixiy shahar rivojining zamonaviy sharoitlarini hisobga olish tarixiy-shaharsozlik merosi tarixiy-badiiy qiymatiga nisbatan tobe xarakterga ega bo'lgani uchun bu klassifikatsiyada faqat bir belgi - meros qiymatini inobatga oluvchi guruhlashdan farqli, shaharlarning yangi turlari ajratilmagan. Ammo, tarixiy shaharlar bir qancha belgilarning faqat keng tarqalgan munosabatlarini namoyon qiluvchi bu klassifikatsiyaning shartliligiga qaramay, unda O'zbekiston tarixiy shaharlari taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuini kompleks inobatga olishga urinish ko'zga tashlanadi.

Hozirgi vaqtda shaharlar tarixiy qiymati alohida belgilarni aniqlash, o'rganish va baholashga ularning tarixiy-badiiy va shaharsozlik qiymati afzalliklari bilan alohida ahamiyat berilyapti. SHu sababli shahar tarixiy majmualari qiymatini aniqlash uslubi qiziq. Murakkab fazoviy tuzilishni ob'ektiv baholash uchun eng avvalo mezonlarning ishlab chiqilgan tizimi asosida shahar tarixiy markazi tarkibiy qismlarini individual baholash zarur, aynan:

- tarixiy, hajmiy-fazoviy muhit va me'moriy-rejaviy tuzilish elementlarining mustahkamligi;

- alohida ob'ektlar yoki ular majmualarining badiiy qiymati;

- majmualarning me'moriy-badiiy va estetik qiymatlari;

- majmuani moddiy hujjat sifatida namoyon qilish, shahar fazoviy shakllarining rivojlanish bosqichlari;

- majmuaning tarixiy markaz yoki shahar miqyosida o'ziga xosligi yoki mahobatlilikligi;

- respublika bilan bog'liq tarixiy an'analar qiymati;

-arxitektura yodgorliklari atrofida muhofaza xududi, alohida tartib zonolari va qurilishlarni qat'iy tartibga solish zonalarini aniqlash.

Bu mezonlar bir xil ahamiyatli emas, umumiy baholashga ularning ta'siri turlicha. Shuning uchun klassifikatsiyalashda alohida mezonlarni belgilash va ularni bir-biriga taqqoslash imkonini beruvchi tizimni yaratish zarur. Bundan tashqari, har bir mezon chegarasida tadqiq qilinayotgan struktura(tizim) uning talablarini qondirishi kerak bo'lgan darajaga bog'liq holda, muhofaza xududi chegaralarini belgilovchi raqamli baholash ko'rinishidagi qo'shimcha izchillik olib boriladi. Mukammal klassifikatsiyalash shahar fazoviy maskanining birinchi navbatda tarixan qimmatli hududlar chegaralarini belgilovchi dastlabki tadqiqotlardan so'ng boshlanadi. Tarixiy fazoviy maskanning saqlanish darajasini alohida tarixiy echimlarga ega bo'lgan turar joy binolari va jamoat binolarini inobatga olgan holda elementlar bo'yicha baholash taklif etiladi. Chunki shahar markazi fazoviy maskandagi o'zgarishlar juda turlicha, ularni qadimiy maskanni buzuvchi, befarq va uni boyituvchilarga ajratish mumkin. Turizm tizimida tashkiliy xo'jalik va ma'muriy-madaniy markazlar rolini bajaruvchi Samarqand shahri tarixiy qismining faollashuvining jadal jarayoni yodgorliklarning asosiy qismi to'plangan eski shahar qurilish umumiy hajmining o'sishi bilan olib boriladi. Zamonaviy sayyohlik markazlarini shakllantirish va tashkil qilish, ularning tarkibini kengaytirish, tuzilishini rivojlantirish, me'moriy ifodaviylikni ko'tarish, tarixan shakllangan eski shaharni o'zgartirish va ularga tutash zonalarini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda me'mor-shaharsozlar oldida tarixan yuzaga kelgan tuzilishdan zamonaviy tuzilishga hamma tarixiy qimmatbaho elementlardan faol foydalanish va ularni ehtiyot qilib saqlash, qadimiy va yangi qurilayotgan inshootlarning uyg'un birligini yaratish orqali izchil o'tishni izlash vazifasi paydo bo'ladi. Bu vazifani hal etishning murakkabligi shundaki, tarixiy shaharlar markazida, odatda, binolar balandligi 1-2 qavatdan oshmaydi, vaholanki zamonaviy qurilish asosan baland qavatli va katta o'lchamli binolarga yo'naltirilgan.

Oxirgi yillarda davlat, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlarning bu masalaga murojaat etishi, maxsus xalqaro konferensiyalar, muzokaralar, simpoziumlarning o'tkazilishi, muammoning dolzarbligidan guvohlik beradi. Ilmiy-tadqiqot institutlari ishlarida ham bunday masalalarga turli-tuman kompleks mavzularning muhim qismi sifatida alohida ahamiyat qaratiladi. Qo'yilgan muammoni hal qilishda sobiq "TashZNIIEP", "UzNIIP gradostroitelstva" va "UzNIPI restavratsii" institutlarida o'z vaqtida olib borilgan qator tadqiqotlar asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu tadqiqotlar natijasida tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashning umumiy usullari, tarixiy shaharlar markazlarining tarixiy echimi va qurilishi bo'yicha qo'llanma, qayta tiklashda me'moriy yodgorliklarni hisobga olish usullari, tarixiy shaharlardagi tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, tarixiy qiymatga ega rejaviy echimlar tuzilishini saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan[30].

3 bob xulosasi

Eski shahar qismida jamoat binolari va turarjoy qurilishining tashqi qiyofasiga shaharning kattaligi, uning xalq xo'jaligi sohasida, geografik joylashishining xususiyatlari, me'moriy yodgorliklarning mavjudligi, mavjud turarjoy binolarining holati va boshqalarga bog'lik holda turlicha talablar quyiladi. Shaharning markaziy qismlarida turarjoy qurilishining me'moriy-badiiy qiyofasiga shahar markazi arxitektura ansamblining umumiy shaharsozlik g'oyasi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Turarjoy qurilishining umumshahar jamoa va ma'muriy markazlari bilan birgalikda majmua tashkil etish usuli keng tarqalgan. Ayniqsa tarixiy shakllangan shaharlarning arxitektura yodgorliklari joylashgan qismlarida turarjoy muhiti va uning tashqi qiyofasini shakllantirish murakkab muammoga aylanadi. Bu muammo yichimlaridan biri sifatida binolarning fasadlarini milliylik tamoyillari asosida tashkil etish yo'li bilan yichish mumkun

bo'ladi buning uchun avvalombor bu hududda yashayotgan insonlarning ongli munosabatini rivojlantirishimiz kerak, chunki bu hududlarda yashayotgan aholi tomonidan bunyod etilayotgan binolar milliy me'morchilikka mos qilib qurishni tushinishlari kerak. Binolarning fasadlarini o'zgartirish orqali bunga erishish mumkin, zamonaviylik, qulaylik bu juda yaxshi omillar ammo ularni tarixiy shahar binolarining ichki muhitida mujassamlashtirish tavsiya etiladi.

Tashqi tomondan bolaxonali, ayvonli, deraza va balkonlarga milliy panjaralar o'rnatish (joyiz bo'lsa), ustunlardan keng foydalanish, darvozalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Jamoat binolarida (mehmonxonalar, bazimgohlar) qurilishida tarixiy me'moriy obidalarimizdagi qo'llanilgan bezak elementlarini stellashtirilgan holda qo'llash tavsiya etiladi. Bulardan tashqari binolarning ranglariga ham katta etibor qaratish talab etiladi. Turli xil yorqin ranglardan foydalanmaslik kerak.

Respublikamizning tarixiy shakllangan shaharlarida ular tashqi qiyofasining o'ziga xosligi kam qavatli an'anaviy turar-joy binolarining nisbatan neytral fondida joylashgan me'morchilik yodgorliklarining mahobatli hajmlari bilan ifodalanadi. Tarixiy shaharlarimizning o'ziga xos bo'lgan tashqi qiyofasiga hozirgi kunda zamonaviy turar-joy binolaridan iborat yangi turar-joy tumanlari jadal sur'atlar bilan kirib kelmokda. Shu munosabat bilan tarixiy shaharlarimizning o'ziga xos tashqi qiyofasini saqlab qolish Respublikamiz shaharsozligining muhim muammolaridan biriga aylanmokda.

Bunda binolarni rejaviy tuzilmasi saqlangan holda, ularning faqalgina fasadlarini milliy me'morchiligimizga mos holda tamirlash va yangilarini tashkil etish orqali erishish mumkun. Bu muammo yichimi uchun ma'lum bir yo'ldir. Vaholanki, bunday yechim binolarni butko'l qayta qurish loyihaga qaraganda iqtisodiy samarali ham dir.

Umumiy xulosalar

Maskur dissertatsiya o'tkazilgan izlanishlar, Samarqand shahrining tarixiy qismida yangi binolar fasadini me'moriy-badiiy tashkillashtirish va eskilarini ta'mirlash tamoyillarini tadqiq qilish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar quyidagi yakuniy xulosalarni keltirishga imkon berdi:

-Samarqand eski shahrining bugungi hududi XIV asrda shakllangan bo'lib, ungacha u ikkita muhim bosqich orqali kengaygan VIII asrda qadimiy shahriston (Afrosiyob), IX asrda ark va shahristonni o'z ichiga oluvchi rabot. Shahar arxitekturasining shakllanishida XIII asrda mo'g'illar istilosi, XIV asrda – Temuriylar hukmronligi, XIX – XX asrlarda –qulab, Sobiq ittifoq davri yangi sotsialistik g'oyalarning kirib kelishi.

-An'anaviy memoriy obidalarimiz shakllanishi bir qancha bosqichlar asosida shakllangan. Ular turli davirlardan bizgacha yitib kelgan o'tmish qadriyatlarini, milliy an'alarini saqlab avlodlarga yetkazib kelayotgan bebaho moddiy merosimizdir. Bu meros Sobiq ittifoq davrida bir muncha taziqqa uchradi. Bunga sabab ular xalqni milliy o'zligini anglashga da'vat etuvchi muhim omillardan biri edi. Milliy me'morchiligimizni oddiy qurilish namunasi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lganligi ma'lum. Vaholanki bu binolarimiz qurilishida juda katta tajriba va qonuniyatlar yotganligi olimlarimiz tomonidan isbotlangan.

- Turar-joy qurilishi me'moriy-badiiy qiyofasining ikki tomonini, ya'ni shahar umumiy qiyofasini shakllantirishda ishtirok etuvchi tashqi qiyofasi hamda odamni bevosita o'rab turgan ichki qiyofasini alohida ko'rsatish mumkin. Masalan, umumiy tashqi qiyofasi asosiy magistral ko'chalarga qaragan turar-joy binolari atrof bilan bog'langan bo'lishi kerak.

-Eski shahar binolari tashqi tomondan fasadlarini rekonstruktsiya qilish kerak, chunki ular tashqi muhit bilan bog'langan. Ichki muhit esa har bir

insonning o'z ehtiyojlari, hohish-istaklari uchun qulay bo'lgan ruhiy kechinmalariga mos bo'lishi kerak.

Tashqi tomondan esa odamlarning eski shahar haqidagi tasavvurlari albatta ko'rish orqali hosil qilinadi. Insonlar tashqi axborotlarning asosiy qismini ko'rish orqali qabul qilishi barchaga ma'lum, shunday ekan bugungi kunda eski shaharni ma'lum bir ko'rish qismlardan kuzata turib, undan qanday axborotlar olishimiz mumkun? – albatda bu taasurotlar ijobiy emas. Chunki bu muhitda qurilgan binolarning aksariyati Sobiq ittifoq davrida qurilgan “mahalliy madaniyati qaloq, chetdan kirib kelgani ilg'or” degan noto'g'ri tushunchalar asosida rivojlangan o'zining badiiyligini yo'qotgan binolarning mavjudligi bu tasavvurlarni hosil qilishga ancha halaqit beradi.

To'g'ri an'anaviy binolarimiz bu fikirdan ancha yiroq, ularning kuzatish nuqtalari ochilgan, bu shahar umumiy ko'rinishiga nisbatan xususiy holat hisoblanadi, negaki Guri Amir, Ruhobot, Registon, Bibi Xonim, Shohi Zinda majmualari tarixiylikni o'zida to'la aks ettiradi, inson bu muhitga tushganda o'zini o'tmishga tushgandek his qilishi tabiiy. Lekin umumiy vaziyatda esa buni his qilish bir muncha qiyin.

- Bugungi kunda tarixiy ko'chalarimizda milliy an'analarimiz asosida bir necha binolar qurilishi amalga oshirilmoqda. Bular Ko'ksaroy bazimgohi, Sulton, Malika, Emirhan mehmonxonalari va bir qancha turar-joylar ikki qavatda usti yashash xonalari, birinchi qavati esa savdo maishiy hizmat ko'rsatish binolari tarzida ularning fasadlarida milliy an'analarimizdan keng foydalanilganligini ko'ramiz. Ammo bazi bir bunday qurilishlar oldida ham bir muncha jiddiy kamchiliklar mavjud, masalan: Dahbet ko'chasida qurilgan “Ko'ksaroy bazimgohi”ni oladigan bo'lsak uning fasadi badiiy yechimi insonda tarixiylik kayfiyatini his etishi va insonlarni o'ziga torta olishini kuzatishimiz mumkin. Hozirda esa bu binoning oldida nomutanosib tarzda memoriy-badiiy muhit o'zining yevropa arxitekturasiga xos bo'lgan orderlarning qurilganligi qanday achinarli holat.

-Registon ansambli qarshisida qurilgan “Registon” savdo majmuasi haqida ham bu fikirlarni davom ettirish mumkun. Bu bino o’zining tashqi ko’rinishi bilan tarixiy qism muhitiga mutlaqo mos kelmaydi, ochiqdan-ochiq ranglarning o’ta yorqinligi metal konstruksiyalarning qo’llanilishi bilan o’zining badiiy obrazini yo’qotgan, bu esa tashqi muhit bilan nomutannositlikni keltirib chiqardi. Tarixiy rivojlangan Toshkent ko’chasi ham Mustaqillik yillari qayta rekonstruksiya qilindi, bu ko’chada binolar fasadida ham bugungi kunda zamonaviy materiallardan alyukobond panellar, keng oynavand yuzalardan keng foydalanilayotganligi ham tarixiy muhitga mos emas.

-Tarixiy qisimda Sobiq ittifoq davri binolari saqlanib qolgan Dahbet, Registon, Shohi Zinda ko’chalari bo’lib, bu ko’chalar qurilgan turar-joy binolari bugungi kunda shahar me’moriy muhit qiyofasini buzib turibdi. Bundan tashqari Registon maydonining g’arbiy tomonida qurilgan 4 qavatli maktab binosi ham bunga yaqqol misol bo’la oladi.

-Hozirgi kunda tarixiy qismning fonoviy arxitekturasini buzilgan, uni ma’lum bir qismlardan kuzata turib, eski shahar panoramasini yahlit kartina deb oladigan bo’lsak “tuya fonida dengiz” ishlanganligining guvohi bo’lamiz. Axir O’rta Osiyo me’morchilik muhitiga “dengiz” bir muncha begona ekanligi ma’lum. Bu usul ko’proq yevropa arxitekturasiga xos elementlarning qo’llanilishi bilan rivojlanib bormoqda.

Masalan: A.Temur ark qal’asidan turib Registon maydonini kuzatsangiz Registon ansambli manzarasi odamga ma’lum bir ma’noda tarixiylikni, otababolarimiz merosi naqadar buyuk ekanligini his etamiz. Bu xususiy vaziyat hisoblanadi, ammo uning atrofini umumiy vaziyatda qaralsa buning aksini ko’rasiz. Tarixiy me’moriy ansamblni butunlay yangicha zamonaviy arxitektura imoratlari qamrad olganligi, bu achinarli holatni keltirib chiqarib, tamoshabinga tarixiylikni his etishga halaqit beradi.

Ark qal’aning o’zi ham bundanda ayanchli ahvolda, unda butunlay tarixiylik muhiti yo’qolganligi ma’lum.

Yuqoridagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya qilaman:

-tarixiy shaharning fonoviy arxitekturasini qayta ko'rib chiqish kerak;

-bu tarixiy muhitni qayta tiklashning yangicha yo'li, mavjud binolarni buzmasdan turib ularning fasadlarini an'anaviy me'morchiligimiz asosida ta'mirlash yo'li bilan saqlab qolish mumkin;

-barcha ta'mir ishlari milliy arxitektura yodgorliklariga nisbatan ikkinchi darajaleli bo'lishi kerak;

-binolar qurilishida ajdodlarimiz tomonidan ma'lum bir qoida va qonuniyatlarga e'tibor bergan, ularda badiiylik asosiy o'rinlarni aks etgan, buni bugungi kun me'morchiligida ham qo'llash yaxshi yechim hisoblanadi;

-binolar qurilishida tabiiy va atrof muhit munosabatlarini inobatga olish kerak;

-fasadlarni tashkil etishda, an'anaviy memoriy obidalarimiz va tarixiy shakllangan turarjoylarda qo'llanilgan badiiy elementlaridan stillashtirish orqali foydalanish lozim;

-loyhalar ishlashda loyachilar mijoz talabini birinchi o'ringa qo'yish emas, balki muhit talablarini birinchi darajaga qo'yish kerak;

-tarixiy qisimda hozirda mavjud turar-joy binolar tomlarini pasaytirish yo'llarini ishlab chiqish kerak;

-ko'chalar va binolarning rejaviy holatini buzmasdan turib, ularning fasadlarini ta'mirlash va ranglar mutanosibliklarini ta'minlash zarur;

-yangi binolar qurishda binolar fasadini ishlashda milliy an'analarni hisobga olish zarur;

-ko'chalarning ma'lum bir qisimlarida tarixiylikni aks ettirgan haykaltaroshlik asarlaridan, lanshaft yechimlaridan foydalanish kerak. Masalan ot-arava, har xil ko'zalar, insonlarning maishiy turmushini aks ettirgan dekorativ namunalaridan foydalanish lozim;

-insonlarning tarixiy muhitga bo'lgan ongli munosabatini shakillantirish kerak, qachonki odamlar ongida tarixiy muhitga bo'lgan munosabati tug'ri shakillansagina bu muhitga nomutanosib binolar qurilishiga barham berilar edi.

Adabiyotlar ro'yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat yingilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 26 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shaharsozlikni yanada takomillashtirish borasidagi vazifalar tug'risida"gi PF-2595-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 27 apreldagi "Arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida"gi 165-sonli qarori.
4. 2000 yil 14 avgustdagi "SHaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarning bosh rejalarini ishlab chikish va ularni qurish tartibi tug'risidagi nizomni tasdiklash hakida"gi 320-sonli qarori. 2000 yil 23 avgustdagi "Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun raxbarlar va mansabdor shahslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 329-sonli tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish tug'risidagi qarori.
5. **Karimov I.A** Tarixiy xotirasiz kelajak yuq.-T.:, 1998.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

6. **Voxitov.M.M, Mirzayev.Sh.R.** Me'morchilik I qism.T.:, "Tafakkur", 2010. 119b
7. **Axmedov.M.Q.** Me'moriy meros.T.:, "fan va texnologiya",2011.
8. **V.A.Shishkin.** Afrasiab- sokrovishnitsya drevney kulture.T., «Fan», 1966
9. "Tuzukoti Temuriy", T.:, 2003
10. **Rui Gonzales de Klavixo.** Samarqandga- Amir Temur saroyiga sayaxat kundaligi. T.:, "O'zbekiston", 2010.
11. **Zahridin Muhammad Bobur.** Boburnoma. T.:, "Yulduzcha", 1989.

12. **Ahmedov M.Q.** Me'moriy meros.-T.:, "fan va texnologiya", 2011.
13. **Zohidov P.Sh.** Me'mor san'ati.-T.:, G'.G'ulom "adabiyot va san'at", 1978.
14. **Pugachenkova G.A., Rempel L.I.** Vedayushiesya pamyatniki arxitekture Uzbekistana, T.:, 1958.
15. **Axmedov M.Q.** O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi, T.:, "O'zbekiston", 1995.
16. **Tamimi A.X.** diss.Obshiy printsipe formirovaniya arxitekturno planirovochnoy strukture mechetey na osnove musul'manskogo. T.:, TASI - 1994.
17. **Zohidov P.Sh.** Me'mor olami.-T.:, "O'zbekiston", 1996.
18. **Sultonova D.N.** O'zbekiston me'morchiligida tasviriy va badiiy vositalarni uyg'unlashtirish.- T.:, "San'at," 2010.
19. **Axmedov M. Q.** Diss: "O'rta Osiyo me'moriy ansambllar va komplekslarni shakllanishi muammolari", SamDAQI., 1994.
20. **Bulatov M.S.** Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. - Moskva.:, "Nauka", 1988.
21. **Manoev S.B.** O'zbekiston zamonaviy shaharsozligida me'moriy ansambl va komplekislari.-Samarqand.:, "Zarafshon", 2014.
22. **Raximov K.D.** Maxalinskiye ansambli - Moskva.:, "Sentr", 1996.
23. **Po'latov X.** O'zbekiston arxitektura yodgorliklari. TAQI., 2003 yil.
24. **Qodirova T.F.** San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi.T.,NMIU 2012.
25. **"Vseobshaya istoriya arxitekture"** T.8. M.:, 1969.
26. SHNK 2.07.01 – 03.
27. **Ahmedov M. Q.** Diss:O'rta Osiyo me'moriy ansambllar va komplekslarni shakllanishi muammolari, SamDAQI.:, 1994.
28. **Voronina V.L.**Arxitekturiye pamyatniki Sredney Azii. Buxara, Samarqand, Leningrad.:, "Avrora", 1969.
29. **Rempel L.I.** Arxitekturiy ornament Uzbekistana.-T.:, "Gosstroyizdat". 1961.
30. **Salimov O.M.** Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda tadqiqot asoslari. "o'quv qo'llanma" T.:, 2013.

- 31. O'ralov A.S.** Me'moriy shakillarni uyg'unlashtirish va bezash.-Samarqand.,
“Sam DAQI,”-2013.
- 32. Sultanov D. U.** Mag diss. Samarqand shahri tarixiy ko'chalarning
ilmiy-loyihaviy yechimlari. Samarqand 2013.

Internet saytlari:

1. <http://www.davarh.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Arxitektura va Qurilish Davlat Qo'mitasi portali).
2. <http://www.natlib.uz/> (O'zbekiston milliy kutubxonasi).
3. <http://www.ziyonet.uz/> (Axborot ta'lim tarmog'i).
4. <http://www.google.ru/> (Axborot qidiruv tizimi).

